



# MULTIPLIKATSIYA MAHSULOTLARI YARATISH TEXNOLOGIYALARI

## O'QUV QO'LLANMA

Televizion texnologiyalar  
ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljalangan

MUALLIFLAR  
**X. A. Mamadaliyev**  
**S. K. Kurbanov**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

*Mamadaliyev Xusniddin Abdijalilovich*

*Kurbanov Sultanboy Kazakbayevich*

**MULTIPLIKATSIYA MAHSULOTLARI YARATISH  
TEXNOLOGIYALARI**

O'quv qo'llanma

5350200- Televizion texnologiyalar (“Audiovizual texnologiyalar”) ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun mo'ljalangan

**TOSHKENT 2021**

**Mualliflar:** X.A. Mamadaliyev, S.K. Kurbanov. Multiplikatsiya mahsulotlari yaratish texnologiyalari. /TATU, 160 b., 2021.

O‘quv qo‘llanma multiplikatsiya mahsulotlari yaratish texnologiyalarini o’rganish istagida bo’lganlar uchun tavsiya etiladi. Qo‘llanmada multiplikatsiya mahsulotlari, ularni tayyorlash usullari va texnologiyalari, xususan, asosiy tushunchalar, sohaga oid mulohazalar, ularning turlari va xususiyatlari batafsil yoritilgan. 2D va 3D animatsion grafikalar yaratish dasturiy vositalari, qisqa va to‘liq metrajli filmlarni yaratish jarayoni bosqichlariga zamonaviy texnikalarni joriy qilish ketma-ket tavsiflab berilgan. Animatsiya yaratish jarayonida foydalaniladigan 12 ta tamoyil va ularning vazifalari batafsil yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmadan foydalanish jarayonida talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun bob doirasida berilgan nazorat savol va test topshiriqlari keltirilgan.

Учебное пособие рекомендовано лицам, желающим изучить технологию создания анимационных продуктов. В учебном пособии подробно описаны продукты анимации, методы и технологии их приготовления, в частности, основные понятия, отраслевые соображения, их виды и особенности. Последовательно описаны программные средства для создания 2D и 3D анимационной графики, внедрение современных технологий на этапах процесса создания короткометражных и полнометражных фильмов. Представлена информация о 12 принципах, используемых в процессе анимации, и их функции.

Для закрепления знаний учащихся в процессе изучения дисциплины в конце каждой главы приведены контрольные вопросы и тестовые задания.

The tutorial is recommended for people who want to learn the technology of creating animation products. The tutorial describes in detail the animation products, methods and technologies of their preparation, in particular, the basic concepts, industry considerations, their types and features. Software tools for creating 2D and 3D animation graphics, the introduction of modern technologies at the stages of the process of creating short and full-length films are consistently described. Information is provided about the 12 principles used in the animation process and their functions. To consolidate students ' knowledge in the course of studying the discipline, control questions and test tasks are given at the end of each chapter.

5350200- Televizion texnologiyalar (“Audiovizual texnologiyalar”)

**Taqrizchilar:** N. Ravshanov – TATU huzuridagi AKT IIM  
laboratoriya mudiri, t.f.d., professor;  
S.S.Beknazarova – TATU AVT kafedrası professorı,  
t.f.d., dotsent.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,  
2021 yil.

## MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	5
I BOB Multiplikatsiya mahsulotlari yaratish texnologiyalari faniga kirish	7
1.1 Animatsiya tarixi	7
1.2 O'zbekistonda multiplikatsiya san'ati	11
1.3 Multiplikatsiya texnologiyasining xalqaro tajribasi	20
II BOB Multiplikatsiya mahsulotlari turlari	29
2.1 An'anaviy multiplikatsiya mahsulotlar	31
2.2 Kompyuter multiplikatsiya mahsulotlar	33
2.3 Ekzotik multiplikatsiya mahsulotlar	44
III BOB Multipliksiyani rivojlantirishda kompyuter texnologiyalari	54
3.1 2D multfilmi animatsion amaliy dasturlari	54
3.2 3D multfilmi animatsion amaliy dasturlari	73
IV BOB Multiplikatsiya mahsulotlarining asosiy elementlari	85
4.1 Personajning kreativ g'oyasi va uni yaratish jarayoni	85
4.2 Primitiv multfilm yaratishning asosiy bosqichlari	94
4.3 Animatsiya tamoyillari	100
4.4 3D formatdagi qisqa va to'liq metrajli multfilmlarni yaratish jarayoni	113
4.5 Kompyuter grafikasi, asosiy grafik fayl formatlari va rang xususiyatlari	129
GLOSSARIY	147
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	159

## SO‘Z BOSHI

Ta’lim tizimida o‘quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi axborot texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab mamlakatimizda yosh avlod ta’lim tarbiyasiga oid izchil islohatlar keng ko‘lamda olib borilmokda. Bunda asosiy e’tibor ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ta’limning zamonaviy mazmunini ishlab chiqish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga izchil joriy etish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish masalalariga qaratilgan. Shu bilan birga ta’lim oluvchilarining faoliyatini oshirish, ularning bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta’minalash, mustaqil ta’lim olishni tashkil etish masalalari ham ta’lim jarayonini takomillashtirishning asosiy jihatlaridan hisoblanadi.

Mazkur qo‘lanmadan foydalanishni boshlashdan oldin bir savolni o‘rtaga tashlashni o‘rinli deb hisoblaymiz. Xo‘sh, multiplikatsiya sohasini o‘rganish va bu sohani fan sifatida kiritishimizga asosiy sabab nima? Bu sohani o‘rganish va rivojlantirish nima uchun kerak? Bu kabi savollarga javoblarni quyidagi faktlar va izohlar bilan tushuntirishga harakat qilamiz.

«Muz yurak», «O‘yinchoqlar tarixi», «Jonivorlar shahri» «Nemoni izlab», «Minionlar» kabi mashhur multfilmlarni ko‘rmagan odam kam bo‘lsa kerak. Ular nafaqat yosh bolalar, balki kattalarning ham sevimli multfilmiga aylanishga ulgurgan. Sevimli multfilmlarimiz ular suratga olingan mamlakat iqtisodiyotiga milliardlab daromad keltirishidan xabaringiz bormi? Keling, shu o‘rinda raqamlarga murojaat qilamiz. «Muz yurak» multfilmi 2013-yilda “Walt Disney Animation Studios” tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, unga 150 million dollar sarmoya kiritilgan hamda 1 milliard dollardan ortiq foyda olingan.

«Minionlar» multfilmi 2015-yilda “Illumination Entertainment” tomonidan suratga olingan bo‘lib, uning ishlanishiga 74 million sarflangan hamda 1 milliard dollardan ziyod daromad olingan. «Jonivorlar shahri» 2016-yilda “Walt Disney” tomonidan suratga olingan. 150 million dollar mablag‘ sarflangan va u

ham 1 milliard dollardan ortiq daromad keltirgan. «Nemoni izlab» multfilmi 2003-yilda “Pixar” tomonidan suratga olingan. Unga 94 million dollar mablag‘ sarflangan hamda 940 million dollardan ziyod daromad ko‘rilgan. «Muzlik Davri 3» 2009-yilda “Blue Sky Studios” tomonidan suratga olingan, uning ishlanishiga 90 million dollar mablag‘ sarflangan, daromadi esa 886 million dollardan oshgan. Mana shu raqamlarning o‘ziyoq animatsion filmlar sohasining naqadar serdaromad soha ekanligini isbotlaydi.

Yuqoridagi faktlarni hisobga olgan holda shu narsani aniq aytish mumkinki, multiplikatsiya sohasi daromad jihatidan serdaromad va bu sohani davlat miqyosida olib chiqiladigan bo‘lsa, mamlakat iqtisodiyotining bir qismini yetarli darajada ta’minalash imkonи mavjud. Buning uchun faqatgina sohani yaxshi o‘zlashtirgan malakali mutaxassislar bo‘lsa va yetarli darajada sarmoya jalb qilinsa bas. Albatta, ushbu mutaxassislar ish faoliyati olib borishi uchun yetarli sharoit yaratilishi talab qilinadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning maqsadi – multiplikatsiya texnologiyalari va ularning asosiy tushunchalari haqida ma’lumot berish, multiplikatsiya mahsulotlari, ularning turlari, bir-biridan farqlanishi va yaratish texnologiyalari kabi tor sohaga oid tushunchalarni tushuntirishdan iborat.

# **I BOB. MULTIPLIKATSIYA MAHSULOTLARI YARATISH**

## **TEXNOLOGIYALARI FANIGA KIRISH**

### **1.1. Animatsiya tarixi**

Multiplikatsion animatsiya haqida fikr bildirishdan oldin, uning tarixiga bir nazar solsak. 1877-yilda 30-avgustdan mulfilm tug‘ilish kuni hisoblanadi, chunki shu kuni Emil Reno birinchi marta animatsiya uchun patent olishga muvaffaq bo‘lgan. 1892-yil 28-oktabrda Emil Reno Parijdagi GREVEN muzeyida birinchi marta proyektor, grafik lentalar yordamida «optik teatr» namoyish etdi. 1898-yil Jeyms Stuart Blekton va Albert E.Smit birinchi «Sirkdagi liliputlar» nomli qo‘g‘irchoq animatsiyasini yaratishdi.

1899-yilda birinchi animatsion reklama roligi yaratildi. Bunda ushbu rolik juda sodda va ko‘rimsiz holatda bo‘lgan. 1900-yilda «Sehrlangan chizma» nomli film yaratildi, bu filmda animatsiyalarning sirlari ochib berilgan edi, ya’ni animatsiya yaratish to‘g‘risida dastlabki fikr-mulohazalar keltirilgan.

1906-yilda Amerika kompaniyasi Jeyms Stuart Blektonning kinoplyonkada olingan «Kulgili yuzlar» nomli soddalashtirilgan qisqa animatsiyasini yaratdi. Mazkur animatsiya keyinchalik Amerika Qo‘shma Shtatlarda animatsion filmlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Animatsiyaning sekin-astalik bilan rivojlanishi multiplikatsiya sohasining yuzaga kelishiga sabab bo‘la boshladi. Ya’ni endilikda bu soha bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar qisqa ko‘rinishdagi animatsiyalar bilan cheklanib qolmay, biror-bir syujetga asoslangan va qahramon-personajlardan iborat multfilmlarni yaratish harakatiga tusha boshladilar.

1908-yilda Fransiyalik rassom va karikaturachi Emil Koll multiplikatsiya bilan jiddiy shug‘ullanib «Fantasmagoriya» deb nomlangan multfilm yaratdi. Bu multfilm Yevropa tarixida eng mashhur multfilm hisoblangan, chunki juda sodda va syujetga boyligi bilan ajralib turardi.

1911-yilda Uinzor Makkey gazeta komiksidan «Kichkina Nemo» nomli multfilmni yaratdi (1.1-rasm). Ushbu multfilm amerikalik animator Makkeyning dastlabki ishi bo‘lib, multfilm davomiyligi 11 daqiqa 33 soniyadan iborat bo‘lgan.

Personajlarning ko‘p ma’noli ekanligi bundan oldingi animatorlarning ishlaridan ajralib turardi.



1.1-rasm. «Kichkina Nemo» multfilmidan lavha

1912-yili rus rejissyori va operatori Starevich Vladislav Aleksandrovich tomonidan «Yoqimtoy Lyukanida yoki qo‘ng‘iz bilan urush» nomli birinchi ovozli multfilm yaratildi. Mazkur multfilm davomiyligi sakkiz daqiqa bo‘lib, bir vaqtning o‘zida parodiya, komediya va melodrama janrlarini birlashtirgan.

1914-yilda Uinzor Makkey tomonidan birinchi marta hayvon qahramonlar aks etgan mutfilm yaratildi. Yorqin voqealarga boy bo‘lgan bu multfilm dinazavr Gerti haqida edi (1.2-rasm).

Yuqorida ko‘rib chiqqanlarimiz barchasi qisqa animatsiyalar va qisqa metrajli multfilmlar haqida ma’lumotlar edi. Shundan so‘ng, multfilmlarni qisqa metrajlidan to‘liq metrajliga o’tkazish borasida harakatlar boshlab yuborilgan. Bu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar aynan shu yo‘nalishda izlanishlar olib borishni boshlagan.

1918-yil Argentinalik rejissor Kvirini Kristiani tomonidan birinchi to‘liq metrajli «Apostol» nomli multfilmning premyerasi bo‘lib o‘tdi.



1.2-rasm. «Dinazavr Gerti» multfilmidan lavha (1914-yil AQSH)

1923-yilda aynan multiplikatsiya sohasida juda katta yangilik ro'y berdi. Bu yangilik amerikalik aka-ukalar Uolt va Roy Disneylar tomonidan asos solingan kichkina animatsiya studiyasining ochilishi hisoblanadi. Qisqa metrajli «Villi kemasi» (1928) ovozli multfilmini yaratish bilan AQSH kinematografiyasida tovush va harakatni sinxronlashtirish usulini ishlab chiqdi. Disney birinchilardan bo'lib o'z studiyasining qahramonlarini (o'rdak Donald Dak, sichqon Mikki Maus va boshqalar) yaratdi va ular ishtirokida ko'plab qisqa metrajli multseriallarni yaratishga erishdi.



1.3-rasm. Rejissyor Uolt Disney o'z studiyasi qahramonlari bilan

1929-yil Uolt Disney «Skeletlar o‘yini» nomli multfilmini suratga oldi (1.3-rasm). Uning birinchi qismi «Quvnoq simfoniya» deb nomlangan. Umuman olganda, Uolt Disney animatsiyalari klassika qonunlari asosida yaratilgan deb hisoblanadi.

1931-yilda Kvirini Kristiani tomonidan yaratilgan «Peludopolis» nomli to‘liq metrajli ovozli multfilmi namoyish etilgan.

1932-yilda Uolt Disney tomonidan birinchi «Gullar va Daraxtlar» nomli rangli multfilm yaratildi. 1937-yilda Uolt Disney o‘zining «Eski tegirmon» nomli multfilmida birinchi marotaba kameradan foydalandi va shu yilning o‘zidayoq aka-uka Grimm ertaklari asosida «Oppoqoy va yetti gnom» to‘liq metrajli multfilmini yaratdi, bu multfilm unga ulkan shuhrat, obro‘ va 8 mln dollor foyda keltirdi.

Bu vaqt oralig‘ida Amerikada paydo bo‘lgan animatsiya va multiplikatsiya sohasi Yevropa va dunyoning boshqa mintaqaga mamlakatlarida ham rivojlana boshladi.

1936-yilda SSSR tomonidan «Soyuz bolalar multfilmlari» nomli animations filmlar yaratish uchun mo‘ljallangan kinostudiya o‘z faoliyatini boshladi. 1937-yilda ushbu studiya nomi «Soyuzmultfilm»ga o‘zgartirildi (1.4-rasm). Ushbu studiyada keyinchalik ko‘plab multfilmlar yaratilgan va tomoshabinlarga taqdim etilgan.



1.4-rasm. «Soyuzmultfilm» studiyasi qahramonlari

Studiyaning dastlabki mahsulotlari sifatida quyidagi multfilmlarni misol keltirish mumkin. Pyotr Nosov va Mixail Tsexanovskiyning «Archa» (1942), Olga Xodataevaning «Tulki, quyon va xo‘roz» (1942), Ivan Ivanov-Vanoning «O‘g‘irlangan quyosh» (1944), opa-singil Valentina va Zinaida Brumberglar tomonidan tayyorlangan «Shoh Saltan ertagi» (1943) va «Dengizchi Sindbad» (1944), Panteleimon Sazonov va Lamis Bredislarning «Burgut va sigir» (1944), Mixail Tsexanovskiyning «Telefon» (1944) kabi multfilmlari shular jumlasidan.

Mazkur studiyada tayyorlangan eng mashhur multfilmlar 1960-80-yillarda yaratilgan. Bu yillar mobaynida ko‘p seriyali multfilmlar yaratila boshlandi. Shulardan R.Davidovning «Maugli», B. Stepansevning «Bola va Karlson», V.Pekar va V.Popovlarning «Umka», V. Kotyonochkining «Senimi, shoshmay tur!», I. Kovalevskayaning «Bremen shahri musiqachilari», F. Xitrukning «Vinni Pux», «Timsoh Gena», R. Kachanovning «Cheburashka» va «Shapoklyak» kabi multfilmlarni misol keltirish mumkin.

1970-1980-yillarda «Soyuzmultfilm» Yevropadagi eng yirik animatsion studiya hisoblangan. 1980-yillarning boshlarida «Soyuzmultfilm» filmlari xalqaro va respublika festivallarida jami 150 dan ortiq sovrin va diplomlarga sazovor bo‘lgan. Qolaversa, bu davrda studiyada 500 ga yaqin mutaxassis faoliyat olib borgan. Bu vaqtga qadar studiya devorlarida suratga olingan filmlar soni mingtadan oshgan edi.

## **1.2. O‘zbekistonda multiplikatsiya san’ati**

Jahon multiplikatsiyasida ilk paydo bo‘lgan multiplikatsion film chizma texnologiyasida yaratilgan bo‘lsada, ammo O‘zbekistonga XX asrning 1965-yili qo‘g‘irchoq texnologiyasi sifatida kirib keldi. Kino sohasida faoliyat yuritib kelgan iste’dodli ijodkorlar Yu.Petrov va D.Salimov o‘zbek multiplikatsiyasining otasi hisoblandi. Chunki, ilk o‘zbek multiplikatsion film ushbu ijodkorlarning izlanishi va mashaqqatlari natijasida yuzaga keldi. Kinofilmda bezakchi rassom sifatida faoliyat yuritgan iqtidorli ijodkor Yu.Petrov mazkur san’at sir-sinoatlari va mashaqqatlarini 1936-yili Moskvada tashkil etilgan «Soyuzmultfilm» studiyasida o‘rganadi va film yaratishga doir yo‘riqnomasi keltiradi. Ularni o‘zlashtirish

natijasida rejissor D.Salimov bilan hamkorlikda «6×6 kvadratida» (1965) nomli qo‘g‘irchoq filmini yaratishga erishadi.

Bu animatsion filmga eng dolzarb mavzu – o‘zbek xalqining boyligi oq oltin zararkunandalariga qarshi kurashda kimyoviy yutuqlardan foydalanish asos qilib olingan. Film personajlari turli xil hasharotlar (qo‘ng‘iz, qurt, chumoli) bo‘lib, bosh personaj sifatida kolorado qo‘ng‘izi namoyon bo‘ladi. Filmda hasharotlardan iborat qahramonlar bo‘lsada, ularning har birida insoniy xislatlar aks etadi.

Tajriba sifatida olingan ushba filmdan ruhlangan holda ijodkorlarning o‘zbek xalq ertagi asosida milliylikni aks ettiruvchi ilk qo‘g‘irchoq qahramonlar Zumrad va Qimmat obrazi orqali tanish bo‘lgan «Sehrli sandiq» (1966) film yaratildi (1.5-rasm).



1.5-rasm. «Sehrli sandiq» multfilmi qahramonlari (1966)

Film senariysiga bu ikki ijodkor D.Salimov va Yu.Petrov mualliflik qilib, qo‘g‘irchoq qiyofasidagi personajlarni yaratishda qo‘g‘irchoqboz-multiplikatorlar V.Stupakov, F.Tomashevsky, qo‘g‘irchoq va dekoratsiyalarni tayyorlashga S.Strashnov, E.Poleektov, N.Ayupovlar (shuningdek, rollarga ovoz berishda F.Hamrayev, Z.Sadriyeva, S.Sotiboldiyeva, Ya.Abdullayeva, D.Hasanova) jalg etilgan.

Mazkur film o‘zbek multiplikatsiyasida bir qadam olg‘a siljib, qator kartinalar yaratilishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, rejissor Q.Kamolova va rassom Yu.Petrovning «Bulutni kim yaratdi?» (1967), «Raxim qo‘ng‘iz ho‘l bo‘lib ketdi» (1967), «Shumtaka» (1968), Z.Royzmanning «Kichik yolg‘onchi» (1968), «Kutilmagan ayiqcha haqida» (1970), «Quyosh yog‘dusi» (1971) kabi multfilmlarni misol keltirish mumkin.

Keyinchalik mazkur san’atni shakllantirishga rassomlar V.Gridnev, V.Akudin, R.Tumankov, V.Stupakov, A.Jiboyedov, A. Hamdamov hamda rejissorlar Q.Kamolova, Z.Royzman, Sh.Shokirova, A. Akbarxo‘jayevlar munosib hissa qo‘shdilar. Keyinchalik 1970-yilning ikkinchi yarmidan rassomlar M.Mahmudov, S.Alibekov, R.Kamoliddinov, A. Sobirov, A.Dorojinskaya, O.Haritonova, T.Horosheva, K.Tsoy, O.Tyajelova, V.Jironov, O.Galitskaya, rejissorlar N.To‘laxo‘jayev, S.Murodxo‘jayeva, D.Botirova, I.Krivosheyeva mustaqillik davridan esa rassomlar S.Silka, D.Vlasov, S.Ryabyh, M.Qoraboyev, tarbiyalanuvchilari B.Ismoilov, A.Safin, S.Chufarnov, G.Matevosyan, A.Muhamedov, A.Gvardin, J.Turdixo‘jayev, B.Salahutdinov, rejissorlar Vladimir Nikitin, N.Smirnov, M.Kudrina kabi yosh iste’dodli ijodkorlar samarali xizmat qilib kelishmoqda. Shuningdek, «Cinema Servis» (2008), «VRC» (2006), «Futurist studio» (2011) va so‘nggi (2016), «Astir animatsiya studio» xususiy studiyalar ham aynan multfilm sohasida faoliyat olib borishmoqda.

O‘zbekistonda «O‘zbekfilm» qoshidagi multbirlashma 1964-yil tashkil etilib, Moskvadan taklif etilgan rejissor va rassom V.Arsentev bilan 1969-yili ilk chizma film «Jasur chumchuqcha» (ssenariy mualliflari: A.Kabulov, L.Babaxanov rejissor va rassom- V.Arsentev, operator- N.Gerasimov) yaratilgan. Multbirlashma 1978-yil «Qo‘g‘irchoq va rasmlı filmlar» sexiga aylantirildi. Kartinada bosh personaj kichik chumchuqcha bo‘lib, u xonning xizmatkorlari tomonidan o‘g‘irlab ketilgan yosh yigitni topishga va qutqarishga yordam berishi haqida hikoya qilinadi. Tajriba tarzida yaratilgan ushba film texnologiyasining qonuniyatları o‘zbek rassom rejissorlari tomonidan o‘zlashtirilib, natijada mazkur texnologiyada ko‘plab filmlar

yaratilgan. «Ayiqcha sayrda», «Tulki va qush», «Kakkuning siri», «Aka-uka barmoqlar», «Prujinkul» kabilar shular jumlasidandir.

Ular orasida eng muvafaqqiyatli filmlardan biri rejissor N.To‘laxo‘jayev va rassom S.Alibekovning amerikalik fantast yozuvchi Rey Bredberining «Yoqimli yomg‘ir yog‘adi» nomli hikoyasi asosida yaratilgan (1984) filmidir. Film katta yoshdagi tomoshabinlar uchun ilk yaratilgan film bo‘lib, g‘oyasi sanoqli personajlar orqali kuchli talqin etiladi. Filmda kelajak bashorat qilinib, yer yuzida atom urushi xavfi falsafa ko‘rinishda hikoya qilinadi. Film shu qadar mahorat bilan yaratilganligi sababli, xalqaro kinofestivalda (Leypzig) bosh sovrin «Oltin Kabutar» va Ispaniyaning Bilbao shahrida o‘tkazilgan kino festivalida «Kumush mikeldi» sovrinlariga munosib ko‘riladi. Film rassomi mahoratlari ijodkor S.Alibekov ko‘plab bu kabi fantastik chuqur tagma’noli filmlar rassomidir. O‘zbek animatsiya mакtabida yetishib chiqqan bu ijodkor bugungi kunda Moskva shahrida ijodini davom ettirib kelmoqda.

1970-yillarning ikkinchi yarmida bu san’at dargohiga kelajagi porloq iste’dod egasi M.Mahmudovning kirib kelishi o‘zbek multiplikatsiyasining mavzusi, tasviriy ifoda uslubi va texnologiyalarida keskin burilishga sabab bo‘ldi. U o‘zbek multiplikatsion filmlar texnologiyalar orasiga qiziqarli va o‘ziga xos qonun-qoidalarga ega bo‘lgan texnologiyani olib kirdi.

1980- yillarda multbirlashma juda mushkul ahvolga tushib qoladi. Chizma filmda qo‘llaniladigan ashyolar (selluloid, kerakli bo‘yoqlar va jihozlar) ning tanqisligi sababli studiyada ish og‘ir kechadi. M.Mahmudov bu texnologiyaning sir-asrorlarini o‘zlashtirib, natijada mamlakatimizda hazilga boy, komediya janridagi «Xo‘ja Nasriddin» (senariy muallifi A. Borodin, rejissor M.Mahmudov, postanovkachi-rassomlar M.Mahmudov, A.Dorojinskaya rassom-animatorlar A. Pedan, L. Usachev, Ryabykh S., N. Rabinovich, operator Vladimir Nikitin, kompazitor R.Vildanov direktor G. Babajanov. 1982) ilk filmni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Film personajlarining miniatura uslubida yaratilganligi kartinaning tasviriy ko‘rinishini yanada boyitdi. Askiya san’atiga xos dialoglar asosida sharq Mumtoz she’riyatini ifodalovchi miniatura an’analariga tayanish film rejissor va rassomi

M.Mahmudovning g‘oyalarini ifodalashda qo‘l keldi. Ushbu adabiy asar ma’lum bir film yaratilishida uning qiziqarli, yosh tomoshabinni o‘ziga jalb etish uchun o‘yinli voqealar va kuchli dinamikadan iborat bo‘lishi zarur bo‘lgan talab bilan o‘zaro bog‘liq edi.

M.Mahmudov 1992- yil, o‘n to‘qqizinchi asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan angliyalik yozuvchi Oskar Uayldning «Baxtli shahzoda» nomli hikoyasi asosida (perekladka) multiplikatsion film yaratadi. Film ikki qismdan iborat bo‘lib, unda insoniylik his-tuyg‘ulari yetakchi sanaladi hamda personajlarning hayajoni, o‘y-kechinmalari va ruhiyati kuchli talqin etiladi. Rahmdil qalb haqidagi ta’sirchan bu film uchun ijodkor M.Mahmudov O‘zbekiston kino arboblari uyushmasining “Griffin” mukofotiga (1993) munosib ko‘riladi.



1.6-rasm. Alpomish obrazi «Alpomish» multfilmi (1999)

Keyinchalik o‘zbek animatsiya san’ati dovrug‘ini olamga taratgan mahorat egasi M.Mahmudov rassom M.Qoraboyev bilan «Bulbul» (ssenariy muallifi va rejissor: M.Mahmudov, rassom: M. Qoraboyev kompozitor: Mirhalil Mahmudov operator: M.Abzalova 1999) filmida ekranlashtiradi. Unga XIX asrda yashab, ijod etgan daniyalik yozuvchi G.H.Andersenning shu nomli ertagini asos qilib oladi. Ijodkor mazkur ertak asosida ssenariy yozib, uning ba’zi bir syujetlarini o‘zgartiradi.

Ushbu film 1999-yil Moskvada o‘tkazilgan bolalar animatsion kinosi xalqaro festivalining «Eng mehribon film» nominatsiyasiga sazovor bo‘lib, bosh sovrin «Oltin baliqcha» (Yaponiya baliq) bilan taqdirlanadi hamda o‘zbek multiplikatsiya san’atini olamga tanitadi. Bu texnologiyada bugungi kungacha qator filmlar yaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Bular «Oltin barg», «Piri ustoz ertaklari», «Ot», «Quduq», «Konsert», «Farishta», «Simbodning sarguzashlari», «Bahrom va Dilorom», «Qora saroy», «Alpomish», «To‘maris», «Qush», «Susambil» va boshqalar (1.6, 1.7-rasmlar).



1.7-rasm. To‘maris obrazi «To‘maris» multfilmni (2002)

Mustaqillik davriga kelib, ulug‘ ajdodlarimizdan meros bo‘lgan ulkan tariximiz, xalq ijodining afsonaviy epik qahramonlari va buyuk ajdodlarimiz siymolari multipilkatsiya ekranida gavdalana boshladi. Milliy qahramon, milliy xarakter va obrazlar buyuk mutafakkirimiz Navoiy «Xamsa» sining «Bahrom va Dilorom» (1996), «Farhod va Shirin» (2010) dostonlari asosida yaratilgan, «Jaloliddin haqida doston» (1999), «Alpomish» (1999), «To‘maris» (2002), «Spitamen» (2010), «Shiroq haqida afsona» (2011) kabi filmlarda o‘z aksini topdi. Sobiq ittifoq davrida, asosan, ertak janrida filmlar yaratilgan bo‘lsa, 1991-yildan folklor asarlari asosida tarixiy, sarguzasht, melodrama, komediya singari janrlar

doirasi kengaydi. Shuningdek, yangi texnologiyalarning yuzaga kelishi bilan mazkur san'atga yana qiziqish paydo bo'la boshladi. Bu davrgacha qo'g'irchoq, chizma va prekladka texnologiyalari asosida yaratilib kelingan bo'lsa, bular qatoriga chizma kompyuter (2D) texnologiyasi kirib keldi. Mazkur texnologiya bevosita kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bu borada kompyuter grafikasiga oid Adobe Flash, Adobe After Effects, Adobe Photoshop, Toonz, Toon Bum Studio, Anime Studio, 2D, 3D kabi ko'plab dasturlar qo'l keladi.

Bu texnologiyalar, asosan, Amerika, Fransiya, Yaponiya, Rossiya multiplikatsiyasida rivoj topgan. Ushbu texnologiya asosida film yaratish o'zbek multsan'atida 1998-yil o'rtalarida paydo bo'ldi. 1994-yil Multbirlashmaga rejissor assistenti bo'lib, mahoratli ijodkor M.Mahmudovga shogird sifatida ish boshlagan D.Vlasov avvaliga arab xalq ertagi asosida yaratilgan «Simbodning sarguzashtlari» (1994), A.Navoiy «Xamsa» sining «Bahrom va Dilorom» Dostoni asosidagi filmda (1996 ), «Yanchar quyon» (1997), «Qoziq» (1998) kabi filmlarning yaratilishida ishtirok etib, o'zlashtirgan tajriba natijasida «Irifantastikfilm» studiyasi bilan hamkorlikda chizma kompyuter (2D) texnologiyasida ilk «Motsart» (1998), filmini yaratadi. Bu film ikki novelladan iborat bo'lib, ularda insonning olamga va atrofdagi odamlarga murakkab munosabati haqida falsafiy fikr yuritiladi. Film avstriyalik bastakor, «Motsart» nomi bilan atalib, asarda kuyning ijro etilishi ham ish bilan bog'liq. Kompyuter texnologiyasida tajriba sifatida yaratilgan bu film natijasida o'zbek multiplikatsiyasi asta-sekin zamon bilan hamnafas rivoj topib bordi.

Mamlakatimizda plastilin texnologiyasi ilk namuna sifatida o'zbek multiplikatsiyasining fantastik ijodkori S.Alibekovning «Exogramma» (2003) filmda qo'llanildi. Filmda talqin etilgan barcha detallar plastilindan yasalib, asarning mazmun mohiyati juda chuqur ma'noga ega falsafiy janrda ifodalangan. Katta yoshdagilar uchun mo'ljallangan mazkur asarning samarali natijasi tomoshabin tomonidan uning imkon qadar borliqni va voqealikni idrok qilishda hosil bo'lgan tushunchalar, tasavvurlar yaxlitligi bilan boyitilganligiga uzviy bog'liqidir. Bundan tashqari detallarning kuzatilishi va materialga berilgan soya-

yorug‘likni ta’minlanishi bilan xarakterlidir. Bu ta’sirchan film shu davrda Kiyev shahrida o’tkazilgan Xalqaro kinofestivalda diplom va maxsus sovringa ega bo‘ldi.

Keyinchalik bu texnologiyadagi filmlarni iqtidorli, sohaga qiziquvchan ijodkor Sergey Chufarnov davom ettiradi. Jumladan, «Mushuk va Jin» (2005), xalq ertagi asosida «Ur to‘qmoq» (2006), «Qirq yolg‘on» (2007), «Azamat va tanballar» (2008) so‘nggi filmi bo‘ldi. O‘zbek multiplikatsiyasi plastilin texnologiyasida sanoqli (5ta) film yaratildi.

Hozir jadal rivojlanib borayotgan texnika asrida animatsiya sohasida kompyuter texnologiyalari asosida maxsus natijalar, kompyuter animatsiyalariga boy bo‘lgan filmlarni yaratishga intilish va qiziqish tobora kuchayib, animator, multiplikator ustalari oldiga jiddiy talablar va murakkab vazifalar qo‘yila boshlandi.

O‘zbekistonda ilk bor multfilm sohasida maxsus natijalarni boyitish va bu sohani rivojlantirish uchun ishga tushirilgan «Cinema Production» kompaniyasi 2008-yil 2-iyundan rasmiy ravishda o‘z faoliyatini boshlagan. Bu studiyaning asosiy ish faoliyati hozirda jahon kinosida rivojlangan maxsus natijalarni yaratish, uch o‘lchamli animatsion filmlar va televizion reklama roliklarini yaratishdan iborat.

O‘zbekistonda bu sohani rivojlantirish uchun yo‘lga qo‘yilgan ba’zi bir ishlari samarasi sifatida maxsus natijalardan foydalanib, 3D texnologiyasida animatsion filmi yaratilgan. Ushbu animatsion film o‘zbek xalq shoiri A.Oripovning «Somaviy mehmon», besh donishmand va farrosh Kampir» she’ri motivi asosida «Somaviy mehmon», (ssenariy muallifi U.Qo‘chqorov, rejissor: M.Mahmudov, rassomlar: D.Jalilova, S.Jumaev, Sh.Rahmatullayev, S.Karimov, bosh animator: J.Bo‘taev, animatorlar: V.Speransky, D.Kubasov, S.Abdunazarov, D.Do‘stmuhammedov, modelchi va teksturachilar: V.Uchayev, J.Bo‘tayev, R.Po‘latov, S. Jumayev, visualizator: R.Po‘latov, D.Kubanov, V.Uchayev) multfilimi yaratilgan.

Mamlakatimizda mazkur texnologiya asosida «Sohibjamol qo‘g‘irchoq» (2011), «Aqltoyning sarguzashtlari» (2014), «Rustam va Said» (2015), «Toshbaqa» (2016), «Bo‘ynoq» (2016), «Kenja Botir» (2017) kabi multfilmlari yaratilgan (1.8, 1.9-rasm).



1.8-rasm. Aqltoy va uning do'sti obrazlari «Aqltoying sarguzashtlari» (2014)



1.9-rasm. «Kenja Botir» multfilm ertagi bosh sahifasi (2017)

### **1.3. Multiplikatsiya texnologiyasining xalqaro tajribasi**

#### **Butun Jahon animatsiya akademiyasi**

**Butun Jahon animatsiya** akademiyasi vakillari sifatida «Disney Kaliforniya» sarguzashtlari, «Uolt Disney» studiyasi parki, «Gonkong Disneylend», «Disney» hayvonot dunyosi va «Epcot»larni ta’kidlash mumkin. Bu kabi hududlarda animatsiya olamiga oid attraksionlar mavjud bo‘lib, ularda multfilm qahramonlari va boshqa mashhur insonlar ishtirokida shou tomoshalar o‘tkazib kelinadi. Xuddi shunday diqqatga sazovor joylar ilgari «Disney»ning Gollivud studiyalarida va 2017-yilda yopilgan «DisneyQuest»da ham mavjud bo‘lgan.

«Shanxay Disneylend»ning «Marvel Universe»da xuddi shunday diqqatga sazovor joy «Marvel Comic Academy» deb nomlangan. Ushbu diqqatga sazovor joyda «Disney» filmlari o‘rniga Marvel Komikning xarakterlari mavjud.

2019-yil 11-iyulda «Disney»ning «Hayvonlar Qirolligi»da Konservatsiya Stansiyasidagi Animatsiya tajribasi ochildi va uning shou tomoshalarida mashhur «Disney» hayvonlari qatnashmoqda.

#### **Pixar Animation Studios**

Pixar Animation Studios, odatda Pixar nomi bilan tanilgan, Amerikaning kompyuter animatsiyasi studiyasi Kalifornianing Emeryvill shahrida joylashgan bo‘lib (1.10-rasm), Uolt Disney kompaniyasiga tegishli «Disney Studios Content» tarkibiga kiradi. Pixar 1979 yilda «Grafika guruhi» deb nomlanuvchi Lucasfilm kompyuterlar bo‘limi tarkibida, 1986-yil 3-fevralda korporatsiya sifatida tarqalishidan oldin, “Apple” kompaniyasining asoschisi Stiv Djobsning moliyalashtirilishi bilan boshlandi. Disney Pixarni 2006-yilda 7,4 milliard dollar qiymatida Pixar aktsiyalarining har bir ulushini 2,3 Disney aktsiyalariga aylantirish orqali sotib oldi, bu bitim natijada Jobs Disneyning o‘scha paytdagi eng yirik yagona aksiyadoriga aylandi. Pixar texnologik jihatdan “RenderMan” tomonidan ishlab chiqarilgan badiiy filmlari, kompaniyaning sanoat standartidagi RenderMan Interface Specification image-rendering dastur dasturlash interfeysi o‘zi amalga oshirishi bilan mashhur. Lyukso Jr., studiyaning 1986- yildagi shu nomli qisqa metrajli filmidagi stol chiroqchasi, bu studiyaning mahsulotidir.



1.10-rasm. Pixar studiyasining bosh ofisi, Kaliforniya, AQSH

Pixar «O‘yinchoqlar hikoyasi» (1995) dan boshlab 22 ta multfilmni suratga oldi, bu birinchi kompyuter animatsion badiiy filmi edi; uning eng so‘nggi filmi Soul (2020) edi. Kinostudiyaning barcha filmlari birinchi marta “CinemaScore” reytingi bilan «A» bahosini oldi, bu tomoshabinlarning ijobiy kutib olinishidan dalolat beradi. Shuningdek, studiya o‘nlab qisqa metrajli filmlar yaratgan. 2019-yil iyul oyidan boshlab uning badiiy filmlari dunyo prokatida ,taxminan, 14 milliard dollar va dunyo bo‘ylab o‘rtacha har bir film uchun 680 million dollar ishlab topdi. «O‘yinchoqlar hikoyasi 3» (2010), «Doriyni qidirib» (2016), «Ajoyib narsalar 2» (2018) va «O‘yinchoqlar hikoyasi 4» (2019) - bu barcha davrlarning eng ko‘p daromad keltirgan 50 filmi qatoriga kiradi. «Ajoyib narsalar 2» eng ko‘p daromad olgan uchinchi animatsion filmdir. U 1,2 milliard dollar daromad keltirgan; qolgan uchtasi ham 1 milliard dollardan ko‘proq pul ishladi. Bundan tashqari, Pixarning barcha davrlarda eng ko‘p daromad keltirgan 50 ta animatsion filmi mavjud.



1.11-rasm. «O‘yinchoqlar hikoyasi 4» (2019) multfilmi qahramonlari Studiya 21 ta «Oskar» mukofotiga, 9 ta «Oltin globus» mukofotiga va 11 ta «Gremmi» mukofotiga sazovor bo‘ldi, shu bilan bir qatorda studiya boshqa ko‘plab mukofotlarga ham sazovor bo‘lgan. Pixarning ko‘plab filmlari 2001-yilda ochilganidan beri eng yaxshi animatsion film uchun “Oskar” mukofotiga nomzod bo‘lib kelmoqda, shulardan o‘ntasi Pixar g‘oliblari «Nemoni topish» (2003), «Ajoyib narsalar» (2004), «WALL-E» (2008), «Yuqoriga» (2009), «O‘yinchoqlar hikoyasi 3» (2010), «Jasur» (2012), «Ichkarida» (2015), «Koko» (2017) va «O‘yinchoqlar hikoyasi 4» (1.11-rasm). Mukofotga sazovor bo‘lmagan uchta – «Mahluqlar» (2001), «Mashinalar» (2006) va «Ajoyib narsalar 2». Ushbu mukofotdan tashqari, «Yuqoriga» va O‘yinchoqlar hikoyasi 3» ham mos ravishda ikkinchi va uchinchi animatsion filmlar edi.

DreamWorks Animation

DreamWorks Animation LLC (shuningdek DreamWorks nomi bilan ham tanilgan) - bu animatsion badiiy va qisqa metrajli filmlar ishlab chiqaradigan Amerika kinostudiyasi. Hammasi bo‘lib kompaniya «Shrek», «Madagaskar», «Ratatull» (1.12-rasm), «Kung Fu Panda» va «Ajidahoni qanday tarbiyalash kerak»

kabilarni o‘z ichiga olgan 39 ta to‘liq metrajli multfilmlarni chiqardi. 2013-yilda «20th Century Fox» bilan eksklyuziv tarqatish shartnomasi imzolandi, bitim 2017-yilda tugagan.



1.12-rasm. «Ratatouille» (2007) multfilmi qahramonlari

2004-yildan boshlab studiya faqat kompyuter animatsiyasi bilan yaratilgan multfilmlarni ishlab chiqara boshlagan. 2010-yildan buyon esa studiya barcha mahsulotlarini 3D formatida ishlab chiqarmoqdi.

Studiyaning ilk animatsion mahsulotlari - «Misr shahzodasi» (1998), «El Doradoga yo‘l» (2000), «Ruh: Praliya ayg‘og‘i» (2002) va «Sinbad: Yetti dengiz afsonasi» (2003) multfilmlari qo‘lda chizilgan animatsiya yordamida yaratilgan. Ushbu filmlarning o‘ziga xos xususiyatlari, studiya tomonidan chiqarilgan quyidagi filmlardan farqli o‘laroq, syujet tarkibiy qismining yoritilishi, dramatiklikning katta darajasi. Keyinchalik katta falsafiylik bilan to‘ldirilgan ushbu multfilmlarni studiya xodimlari «an'anaviy» deb atashadi.



1.13-rasm. «Shrek 2» (2003) multfilmi qahramonlari



1.14-rasm. «Madagaskar» (2005) multfilmi qahramonlari

2004-yilda Dreamworks SKG animatsiya bo‘limi mustaqil kompaniya Dreamworks Animation SKG ga aylantirildi.

2004-yildan so‘ng, «Shrek 2» multfilmi (1.13-rasm) bilan kompaniya o‘zining dastlabki yo‘nalishini tubdan o‘zgartirdi: multfilmlar kompyuter grafikasi yordamida namoyish etila boshlandi, ular hazil, satira va parodiyalar bilan to‘ldirildi va filmlarning maqsadi birinchi navbatda tomoshabinlarni xursand qilish edi. 2015-yil yanvar oyida DreamWorks Animation yiliga ikkita animatsion loyihani chiqarishni bekor qilishi va 500 nafar xodimni ishdan bo‘shatishi haqida e’lon qildi.

Ushbu studiya tomonidan yaratilgan «Shrek» (2001), «Sinbad» (2003), «Shrek 2» (2004), «Madagaskar» (2005) (1.14-rasm), «Kung-Fu panda» (2008), «Turbo» (2013), «Kung-Fu panda 3» (2016), «Trollar» (2016), «Everest» (2019) kabi animatsion mahsulotlar katta muvaffiqiyat olib kelgan.

## **I BOB yuzasidan nazorat savollari**

1. Animatsiya tarixi haqida ma'lumot keltiring.
2. Animatsiya yaratish sohasining butun dunyoga tarqalish bosqichlari.
3. Dunyoga mashhur animatsion studiyalar faoliyati va muvaffaqiyatlari haqida ma'lumot keltiring.
4. Mamlakatimizda qanday dastlabki multiplikatsion mahsulotlar va ularning ijodkorlarini bilasiz?
5. Mustaqillik yillarida multiplikatsiya sohasining rivojlanish jarayonlari haqida nimalarni bilasiz?
6. “Warner Brothers” kompaniyasi va uning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Multfilm sanoati mamlakat uchun qanchalik iqtisodiy foyda olib kelishi mumkin?

## I BOB yuzasidan test savollari

1. Multiplikatsiya sohasining yuzaga kelishida qaysi san'at turining rivojlanishi sabab bo'ldi?
  - a) Haykaltaroshlik;
  - b) Rassomchilik;
  - c) Animatsiya;
  - d) Kulolchilik.
2. Amerikalik animator Makkeyning dastlabki ishi qaysi multfilm bo'lgan?
  - a) «Kichkina Nemo»;
  - b) «Yoqimtoy Lyukanida yoki qo'ng'iz bilan urush»;
  - c) «Dinazavr Gerti»;
  - d) To'g'ri javoblar mavjud emas.
3. Birinchi to'liq metrajli multfilmning nomini toping.
  - a) «Villi kemasi»;
  - b) «Skeletlar o'yini»;
  - c) «Apostol»;
  - d) «Dinazavr Gerti».
4. Multfilm sohasi qaysi qit'alarda rivojlanganligini ketma-ketligini belgilang.
  - a) Amerika, Osiyo, Yevropa;
  - b) Amerika, Yevropa, Osiyo;
  - c) Yevropa, Amerika, Osiyo;
  - d) Osiyo, Avstraliya, Yevropa.
5. «Soyuzmultfilm»ga tegishli bo'lgan multfilmni belgilang.
  - a) «O'g'irlangan quyosh» (1944);
  - b) «Eski tegirmon» (1937);
  - c) «Skeletlar o'yini» (1929);
  - d) «Apostol» (1934).
6. O'zbek multiplikatsiyasi «otasi» deb kimga ta'rif beriladi?
  - a) V. Kotyonochkin;
  - b) Panteleimon Sazonov va Lamis Bredis;


- c) Yu.Petrov va D.Salimov;
  - d) Smalov D.
7. Qaysi multfilm mavzusi sifatida o‘zbek xalqining boyligi oq oltin zararkunandalariga qarshi kurashda kimyoviy yutuqlardan foydalanish asos qilib olingan?
- a) «Raxim qo‘ng‘iz ho‘l bo‘lib ketdi»;
  - b) «6×6 kvadratida»;
  - c) «Quyosh yog‘dusi»;
  - d) «Eski tegirmon».
8. Qaysi multfilm dastlabki o‘zbek multfilmlari orasida ko‘proq muvaffaqqiyatga erishgan?
- a) «Sehrli sandiq»;
  - b) «6×6 kvadratida»;
  - c) «Quyosh yog‘dusi»;
  - d) «Raxim qo‘ng‘iz ho‘l bo‘lib ketdi».
9. O‘zbek multiplikatsiya sohasida ilk 3D texnologiya asosida yaratilgan multfilmni belgilang.
- a) «Ur to‘qmoq»;
  - b) «Somaviy mehmon»;
  - c) «Somaviy mehmon, besh donishmand va farrosh Kampir»
  - d) «Quyosh yog‘dusi».
10. «O‘yinchoqlar hikoyasi» multfilmi qaysi animasion studiya tomonidan tayyorlangan?
- a) Lucasfilm;
  - b) Pixar;
  - c) DreamWorks
  - d) Uolt Disney.

## **II BOB. MULTIPLIKATSIYA MAHSULOTLARI TURLARI**

Multiplikatsiya – hozirgi kunda bolalar uchun tabiiy ravishda yoshiga chindan ham mos keluvchi yanada ko‘p qirrali va yaxlit ijod ko‘rinishi hisoblanadi. U o‘zida professional multiplikatsion filmlarni ifodalash vositalarining turli zahiralaridan foydalananish imkoniyati, tuzilmaning shartlanganligi, fazo va vaqt talqini tushunchalarini aks ettiradi.

Animatsiya, animatsion kino bu multfilm san’atining bir turi bo‘lib, asarlari chizilgan (grafik yoki chizilgan animatsiya) yoki uch o‘lchovli (uch o‘lchovli yoki qo‘g‘irchoq animatsiya) ob’ektlarning harakatlanish bosqichlarini suratga olish yo‘li bilan yaratiladi (2.1-rasm).

Animatsiya (lot. Animare-jonlantirish) – harakatni taqlid qilish yoki statik jismlar shaklini o‘zgartirish. Animatsiya, shuningdek, shaxsiy rasmlar yoki sahnalarni kadrma-kadr suratga olish orqali yaratiladigan san’at turiga kiradi.




2.1-rasm. 6 ta kadrda tashkil topgan koptok sakrashi animatsiyasi

Har bir ota-onha har doim animatsiyaning bola psixologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘ylaydi. Xuddi shu aksariyat Amerika animatsiyalari zararsiz emas va mahalliy eski animatsiyalar bilan Amerika, Yapon animatsiyalari orasida katta farq

bor. Ko‘plab psixologlarning fikriga ko‘ra bu farq dunyoning manzarasida chuqrar farqlanadi.

Aslida animatsiya hayot bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ya’ni animatsiyada xuddi hayotda bo‘lgani kabi eng sezgir personalar katta va kuchli emas. Aksincha, kuchsiz va kichik.

Avvaliga Amerika animatsiyalari zararsiz hunarmandchilikka o‘xshaydi. Ko‘pincha, ular juda ahmoq va qo‘pol ekanligini ta’kidlash mumkin. Mazkur animatsiyalarda mahalliy animatsiyalarga qaraganda dunyoning ,umuman, boshqa qiyofasi tasvirlangan. Hodisa sodir bo‘lgan zamonda yovuzlik yotadi. Yaxshilikning ozgina qismini ko‘rishimiz mumkin. Bunday animatsiyalardagi yovuzlik jismoniy yo‘q qilinishi ham g‘ayrioddiy. Mahalliy animatsiyalarda ular boshqacha yovuzlik bilan kurashishadi, uni ishontirishga yoki undan chiqib ketishga harakat qilishadi.



2.2-rasm. Multiplikatsiya va uning asosiy turlarini tasniflashning sxemasi

Ushbu sohani umumiylar va kengroq tarzda ko‘zdan kechirish uchun, quyidagi multiplikatsiya va uning asosiy turlarini tasniflashning sxemasi taklif qilinadi.(2.2-rasm).

## **2.1. An'anaviy multiplikatsiya mahsulotlar**

Uning asosiy turlari - **hajmli, tekislikdagi** va **relyefli** hisoblanadi.

**Tekislik animatsiyasi** gorizontal tekislikda yotgan rasmlarni yoki tekis qo‘g‘irchoqlarni kadrlar bilan tortib olishga asoslangan. Tekislikda chizilgan va qayta yotqizilganlarga bo‘linadi. Qo‘lda chizilgan animatsiyani suratga olish uchun ketma-ket rasmlar ketma-ketligi suratga olinadi, ular suratga olinayotgan narsalar harakatining keyingi bosqichini aks ettiradi.

*Joylashuvli o‘tkazuvchi animatsiya texnikasi* quyidagilar bilan belgilanadi:

- qo‘g‘irchoqlar qanday materialdan tayyorlanganligi (qog‘oz, mato va boshqalar);
- fon qaysi materialdan tayyorlangan (qog‘oz, mato, yog‘och, shisha, seluloid va boshqalar);
- bo‘yash texnikasini tanlashdan (moy, guash, akvarel, siyoh va boshqalar);
- asboblar to‘plamidan (mo‘yqalam, qalam, bo‘r, flamaster va boshqalar).

*Qo‘lda chizilgan rasmi animatsiya texnikasi* quyidagilar bilan belgilanadi:

- rasmning asosini qaysi materialdan (seluloid, mato, shisha, qog‘oz, yog‘och va boshqalar);
- bo‘yash texnikasini tanlashdan (yog‘, akvarel, guash, siyoh, pastel va boshqalar);
- rasm yaratilgan vositalar (cho‘tka, qalam, qalam qalamchasi, flamaster, shimgich, qalam, barmoq, o‘tkir narsa va boshqalar) tanlovidan qo‘g‘irchoqlar va fon rasmi multfilmni suratga olish uchun yaratilgan.

**Hajmli animatsiya** sahnada qo‘g‘irchoq personajlarini kadrlar bo‘yicha harakatlantirish asosida yaratiladi.

**Relyef animatsiyasi** gorizontal tekislikda joylashgan hajmli yoki yarim o‘lchovli narsalarning kadrlar bo‘yicha tortib olinishiga asoslangan. Relyef animatsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

*Plastilinli.* Kamera ostidagi plastik figuralarni haykaltaroshlik usuli bilan yasash. («Plastilin qarg‘a», «Uolles va Gromit» multfilmlari) (2.3-rasm);



2.3-rasm. Plastilin personajli multfilm («Uolles va Gromit»)

*Qo‘g‘irchoqli*. Yarim hajmli qo‘g‘irchoqlarni kadrma-kadr suratga olish (bu holda biz qo‘g‘irchoqlarning qismlarini harakatga keltiramiz, lekin ularni deformatsiya qilmaymiz) (2.4-rasm).




2.4-rasm. Qo‘g‘ichoq personajli multfilm «Gofmaniada»

## **2.2. Kompyuter multiplikatsiya mahsulotlari**

Kompyuter animatsiyasi, jonlantirilgan tasvirlar yaratish uchun ishlatiladigan jarayondir. Kompyuterda yaratilgan tasvirlar (KYT) ham statik sahnalar, ham dinamik tasvirlarni o‘z ichiga oladi, kompyuter animatsiyasi esa faqat harakatlanuvchi tasvirlarga tegishlidir. Zamonaviy kompyuter animatsiyasi odatda 3D kompyuter grafikasini ishlatadi, garchi 2D kompyuter grafikasi hali uslubiy, past tarmoqli, kengligi va tezkor real vaqtida ishlash uchun ishlatilsa ham, ba’zan animatsiyaning maqsadi kompyutering o‘zi, ba’zan esa film hisoblanadi.

Kompyuter animatsiyasi, asosan, 3D modellarning harakatini to‘xtash harakati uslublari va 2D tasvirlarning kvadratchalar animatsiyasi yordamida an’anaviy animatsiya texnikasi uchun raqamli voris hisoblanadi. Kompyuter tomonidan ishlab chiqilgan animatsiyalar boshqa jismoniy asosidagi jarayonlarga qaraganda ko‘proq nazorat qilinadi, natijalarni tortish uchun miniaturalarni yaratadi yoki olomon sahnalari uchun qo‘sishimcha ishlarni bajaradi va bu boshqa texnologiyalar yordamida amalga oshirilmaydigan tasvirlarni yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari, bitta grafik san’atkorga bunday tarkibni aktyorlar, qimmatbaho to‘sinq bo‘laklari yoki rekvizitlarsiz ishlab chiqarishga ruxsat berishi mumkin. Harakatning tasavvurini yaratish uchun kompyuter monitorida tasvir aks ettiriladi va takrorlanuvchi unga o‘xhash yangi tasvir bilan takrorlanadi, biroq vaqt o‘tishi bilan (odatda 24, 25 yoki 30 kvadrat / sekund tezlikda) rivojlangan. Bu ibora televizor va filmlar bilan harakatning illyustikligiga qanday ega ekanligi bilan bir xildir.

3D animatsiya uchun obyektlar (modellar) kompyuter monitorida (modellashtirilgan) qurilgan va 3 o‘lchamli raqamlar virtual skelet bilan o‘ralgan. 2D formatidagi animatsiyalar uchun alohida skeletlari topilgan yoki bo‘lmagan holda alohida obyektlar (rasmlar) va alohida shaffof qatlamlar qo‘llaniladi. Shundan so‘ng, rasmning oyoq-qo‘llari, ko‘zлari, og’zi, kiyimlari va boshqalar animator tomonidan asosiy ramkalar bo‘yicha ko‘chiriladi.



2.5-rasm. Motion capture uslubida ishlangan kompyuter animatsiyasiga misol

Asosiy ramkalar orasidagi ko‘rinishdagi farqlar\_kompyuter tomonidan avtomatik ravishda hisoblash yoki morflash deb nomlanadigan jarayonda hisoblanadi. Keyin jarayon yakunida animatsiya ko‘rsatiladi (2.5-rasm).

3D ko‘rsatuvar uchun, barcha ramkalar modellashtirish tugagandan so‘ng ko‘rsatilishi kerak. 2D vektorli ko‘rsatuvar uchun renderlash jarayoni asosiy ramka illyustratsiya jarayonidir, ayni paytda kerakli ramkalar zarur bo‘lganda chiqariladi. Oldindan tayyorlangan prezentsiyalar uchun taqdim etilgan ramkalar raqamli video kabi boshqa formatga yoki vositaga o‘tkaziladi. Shuningdek, ramkalar oxirgi foydalanuvchilar auditoriyasiga taqdim etilganidek, real vaqt davomida ko‘rsatilishi mumkin. Internet orqali uzatiladigan kam tarmoqli kengligi animatsiyasi (masalan, Adobe Flash, X3D) tez-tez oqim yoki oldindan yuklangan yuqori tarmoqli kengligi ko‘rsatuvariga muqobil ravishda real vaqtida ko‘rsatish uchun oxirgi foydalanuvchilar kompyuterida dasturdan foydalanadi.

## **2D animatsiya jarayoni**

2D animatsiya tushunchasi juda keng qamrovli bo‘lib, aslida veb-sahifalar bannerlarida, animatsion taqdimotlarda, biror-bir oddiy Flash multfilmi va

murakkab to‘liq metrajli animatsion filmlar - bularning barchasini, agar ular ikki o‘lchovli grafikadan foydalanilsa, tekislikdagi animatsiyaga olib o‘tish mumkin (2.6-rasm).

Ushbu turdagি barcha animatsiyalar kompyuter yordamida yaratilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday turli xil vazifalarni bajarish uchun o‘ziga xos vositalar mavjudligi aniq. Jumladan, gif animatsiyalarini yaratish dasturlari, veb-grafikalarni yaratish imkoniyatlari bo‘yicha ImageReady dasturini aytish mumkin (2.7-rasm).




2.6-rasm. “Tom va Jerri” multfilm i qahramonlari

Animatsiya yaratish bosqichlari quyidagicha:

1. Hammasi tushuncha, ya’ni g‘oya va kelajak voqelik uchun ixtiro qilingan vaziyatdan boshlanadi.
2. Keyin hikoya va uning qahramonlari qisqacha bayon qilinadi.
3. Agar syujet eskizi muvaffaqiyatli bo‘lsa, ssenariy yoziladi. Puxta yozilgan hikoya harakatlar joylarining tavsifini, qahramonlarni o‘rganish va tabiiy ravishda dialoglarni o‘z ichiga oladi.

- bir nechta skanerlar bilan ishslash;
- avtomatik skanerlashdan so‘ng rasmlarni avtomatik ravishda ro‘yxatdan o‘tkazish;
- ikkita monitor bilan ishslash (faqat Windows bilan ishlaydigan);
- Flash dasturiga eksport qilish (\* .swf formati).

### **3.2. 3D multfilmi animatsion amaliy dasturlari**

Uch o‘lchovli dasturlarning qay biri juda yaxshi yoki yomonligini aytib berish mushkul ish. Chunki xar bir uch o‘lchovli dastur foydalanuvchilari o‘zlariga maql kelgan dasturni yaxshi deb xisoblashadi. Xar bir uch o‘lchovli dastur o‘ziga xos xususiyatlar va afzalliliklarga ega xisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha 3ds Max dasturi birinchi o‘rinda turar, ikkinchi o‘rinda esa Cinema 4D va Maya dasturlari turar ekan. Dream Works, WarnerBros, Sonyanimation, Columbia va yana boshqa shu kabi taniqli kompaniyalar ham 3ds Max, Cinema 4D va Maya dasturlaridan foydalanib kelishar ekan. Xattoki 3D o‘yin yaratuvchilari EA games, UBISOFT< THIN, Activision, Infinity Ward va boshqa ko‘plab kompaniyalar shu dasturni qo‘llashar ekan.


Uch o‘lchovli modellashtirish o‘zida maxsus dasturiy ta’mindan foydalanib, 3D modelini yoki uch o‘lchovli obekt ko‘rinishidagi karkas model ishlab chiqish tartibini ifodalaydi. Uch o‘lchovli model chiziqlar va egri sirtlar bilan o‘zaro bog‘langan bir qancha nuqtalar yordamida yaratiladi. Uch o‘lchovli modellashtirish qo‘llaniladigan sohalar tobora kengayib rivojlanib bormoqda.

U quyidagi o‘yinlar, masalan realistic personajlarning modellashtirilishi amalga oshirilishi, tibbiyot-inson tanasi organlarining alohida modellarini yaratilishi, muhandislik – transport vositalari, yangi qurilma va inshootlar modellarini ishlab chiqilishi, kinomotografiya-turlicha maxsus effektlar va xayoliy personajlarni yaratilishi kabi bir qancha sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Reklama sohasida ham 3D modellashtirishdan keng miqyosda foydalanib, amalda bir qancha qiziqarli va kishi e'tiborini jalb qiluvchi reklama roliklari yaratilib kelinmoqda.

3ds Max, Maya, 4d Cinema singari uch o'lchovli dasturlarni birlgilikda qo'llanilishi realistik o'yinli yoki multfilmlni sahnalarni yaratishga va mahsulotimizni mukammal ko'rinishdagi mahsulotga olib kelish imkoniyatini yaratadi. Barcha 3d dasturiy vositalari nisbatan bir biriga o'xshash interfeys va modellashtirish uchun bir biriga o'xshash uskunalar paneliga ega xisoblanadi biroq dasturlar har biri o'ziga xos xususiyatlari va yoritishdagi hisoblash algoritmlari, animatsiyalar yaratish va tasvirlarni vizuallashtirish bo'yicha ham farqlashimiz mumkin bo'ladi.

## MOHO




3.13-rasm. Moho ning ishchi interfeysi ko'rinishi.

Veb, video va film uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan vektorial 3D animatsiyani yaratish dasturi. Biroq, Moho nisbatan arzon echim bo'lib, personajlarni jonlantiradigan vositalarning to'liq to'plamini o'z ichiga oladi.

Qahramonni chizgandan so‘ng, foydalanuvchi suyak animatsiyasi vositalaridan foydalanib harakatlarni boshqarishi mumkin. Bu bizga minimal chizish bilan xarakterni jonlantirishga imkon beradi. Kontur animatsiyasi uchun Flash-dagi Share usuliga o‘xshash shakl o‘zgarishini jonlantirish funksiyasi mavjud.

Moho juda oddiy interfeysga ega, tez-tez ishlataladigan buyruqlar uchun tezkor tugmachalar ishlataladi (3.13-rasm).



3.14-rasm. Mohoning ranglar bilan ishlash interfeysi ko‘rinishi

Dastur gradient yoki yarimshaffof to‘ldirishni yaratishga imkon beradi (2-rasm) va qo‘srimcha effektlar seriyasini taqdim etadi:

- Shaded zalivka (soya bilan to‘ldirish);
- Soft Edge zalivka (loyqa qirralar);
- Splotchy zalivka (smazkalar bilan qoplangan, ajratilgan; bo‘yalgan);
- Halo effekti (yorqin kontur);
- bir ob’ekt uchun bir vaqtning o‘zida ikkita to‘ldirishning turini belgilash qobiliyati.

Image Texture funksiyasi ixtiyoriy tasvirni zalivka sifatida ishlatalish imkonini beradi (3.14-rasm).

## iClone Pro

iClone Pro dasturiy ta'minoti – yuqori sifatli grafika bilan hamda teksturali uch o'lchovli animatsiyalar yaratishga imkon beruvchi utilita hisoblanadi (3.15-rasm). Dastur turli plandagi qahramonlar qatnashgan murakkab 3D animatsiyalar bilan ishlashga imkon beradi.



3.15-rasm. iClone Pro dasturi yuklanish jarayoni

### Yutuqlari:

- Animatsiya yaratishning bir nechta usullarini amalga oshirish mumkin;
- Funksiyalari ko'pligi;
- Harakatning sifatli realizatsiyasi;
- Soyalari bilan ishlash funksiyasi;
- Dastur bilan ishlash hujjatlari, videodarslari va forumlari mavjudligi.

### Kamchiliklari:

- Kompyuter resurslariga bo'lgan talab;
- Murakkab interfeys;
- Bepul versiyasi mavjud emas;
- Interfeys faqat ingliz tilida.

## MODO

MODO dasturi – yana bir kuchli redaktor bo‘lib, u uch o‘lchovli multfilm va animatsiyalarni yaratishga imkon beradi (3.16-rasm). Mazkur utilita keng boshqarilish imkoniyati hisobiga ommalashib ketgan.




3.16-rasm. Modo dasturi interfeysi

Modo rassomga to‘g‘ridan- to‘g‘ri 3D modellarga rasm chizish va hattoki mavjud bo‘lgan ob‘ekt yuzasiga bo‘yashga imkon beradi. Bo‘yoq tizimi foydalanuvchilarga turli xil bo‘yoq effektlari va uslublariga erishish uchun vositalar, cho‘tkalar va siyohlarning kombinatsiyasidan foydalanishga imkon beradi. Mododagi bo‘yoq vositalarining namunalari - bu havoni tozalash, klonlash, ifloslanish va xiralashtirish. Ushbu vositalar siz tanlagan «cho‘tka» bilan birlashtirilgan (masalan, yumshoq yoki qattiq chekka, protsessual). Va nihoyat, siz siyoh qo‘sasiz, uning misoli rasm siyohi bo‘lib, u yerda mavjud tasvirni 3D modelga bo‘yashingiz mumkin. Rasm natijalari bitmapda saqlanadi va xarita Modoning Shader bo‘limida hamma narsani boshqarishi mumkin. Shunday qilib, siz zararli xarita vazifasini bajaradigan xaritani bo‘yassingiz va ko‘rinishdagi oynada real vaqtda parchalarni ko‘rishingiz mumkin.

## Autodesk Maya

Autodesk Maya dasturiy ta'minoti uch o'lchovli tasvir va animatsiyalar bilan ishslash uchun mo'ljallangan professional vosita hisoblanadi va uning imkoniyatlari cheklanmagan deb aytish mumkin (3.17-rasm).

Autodesk Maya - bu Windows, macOS va Linux-da mavjud bo'lgan 3D grafik muharriri. Maya keng 3D animatsiya, modellashtirish va ko'rsatish funksiyalariga ega. Dastur animatsiyalar, muhitlar, harakatli grafikalar, virtual reallik va personajlar yaratish uchun ishlatiladi. U kinematografiya, televizion va o'yin sanoatida keng qo'llaniladi. Maya Dastlab Alias Systems Corporation tomonidan ishlab chiqilgan va keyinchalik Autodesk tomonidan sotib olingan va hozirda qo'llab-quvvatlanayotgan dasturiy paket hisoblanadi.



3.17-rasm. Autodesk Maya dasturida personajni modellashtirish

Hozirgi kunda Maya dasturiy paketi uchta versiyada mavjud:

Maya Unlimited - bu eng to'liq va eng qimmat to'plam. Tarkibida sochlari, mo'yna, maya mushaklari, suyuqlik effekti, mato va boshqalar mavjud.

Maya Complete - bu paketning asosiy versiyasi, unda to'liq modellashtirish va animatsiya bo'limi mavjud, ammo jismoniy simulyatsiya modullari mavjud emas.

Maya Personal Learning Edition - bu notijorat maqsadlarda foydalanish uchun bepul paket. Funksional cheklovlari mavjud, ko'rsatilgan tasvir hajmini cheklash, yakuniy rasmlarni moybo'yoqli qilish.

### **Yutuqlari:**

- funksiyalarning ko'pligi
- multfilm yaratishda unumdarlik siklining to'liq amalga oshirilishi
- yuqori detalizatsiya
- vizualizatsiya qilishning turli tumanligi
- o'rghanish mumkin bo'lgan manbalarning ko'pligi
- rusifikatsiya imkoniyati mavjudligi

### **Kamchiliklari:**

- kompyuter resurslariga bo'lgan talab.
- murakkab interfeys.
- bepul versiyasi mavjud emasligi.

### **Autodesk 3ds Max**


3D grafika, ya'ni uch o'lchovli grafika hozirgi kunda deyarli barcha sohalarda qo'llanilmoqda: arxitekturali vizuallashtirishda, kinomatografiyada, televideniyada, kompyuter o'yinlarida, ilmiy sohada, tibbiyotda va boshqa sohalarda.

Bundan tashqari 3D da boshqa vazifalarni ham bajarsa bo'ladi: bu haqiqiy ko'rinishdagi uy, masalan, hech kim ajratolmaydigan darajada, hech kim hech qachon ko'rmagan uchuvchi korabl bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari oddiy daraxt, oddiy gul yoki tog' yaratish mumkin, buning uchun fraktal generatorlardan foydalilanildi.

3ds Max dasturi hozirgi kundagi eng rivojlangan 3d modellashtirish hamga animatsiyalashtirish uchun mo'ljallangan dasturlar qatoriga kiradi, bu dastur juda moslashuvchan interfeysga ega bo`lib, u har bir amallarni birqancha yo'llar bilan bajarish imkoniyatini beradi. 3ds Max dasturining foydanish menyusini o'zimizga moslashtirib yaratish, qurilmalar paneli, har bir bajariladigan amallarning o'zimizga keragini tugmachalar ko'rinishida ekranga chiqarib qo'yishimiz mumkin.

Yuqoridagilarning barchasi dasturda ishlashni yengillashtiradi va modellashtirish va animatsiyalash ishlarini osonlashtiradi (3.18-rasm).



3.18-rasm. Autodesk 3ds Max dasturida personajni modellashtirish 3ds Max dasturi ishga tushirilganda , uning asosiy ekrani ko‘zga tashlanadi. Masalan, ob’ektlar joylashish holatini sozlash va boshqarishni amalga oshirish tugmachasi jamlanmasi yordamida animatsiyani amalga oshirish jarayonini boshqarish vositasi. Dastur interfeysi beshta asosiy qismga ajratish mumkin:

- Main menu (Bosh menu). Dastur ekranining yuqori qatlamida joylashgan va bu menu 3ds Max dasturiga asosiy buyruqlar bilan murojaat qilishni ta’minlaydi.
- Main Toolbar (Qurilmalarning bosh paneli). Odatda u Bosh menu ostida joylashadi, lekin bu panelni boshqa bir joyga ko‘chirib o‘tish ham mumkin. Dastur amallari va qo`llanuvchi buyruqlar tezkor murojaatlar tugmchasidan tashkil topadi.
- Viewports (proyeksiya ekrani). Ekranning markazida joylashgan va uning katta qismini egallab turadi. Bu oyna to`rtta qismga ajratilgan. Yuqori (Top), chap (Left) old tomonidan ko‘rinishi (Front) va umumiyligi ko‘rinishi (Perspective).
- Command Panel (buyruqlar paneli). Bu panel dastur oynasining o‘ng tomonidan joylashgan. Ushbu panel oltita bo‘limdan tashkil topgan va

model yasashdagи eng asosiy bo'lim hisoblanadi. Ob'ektlarni modellashtirishda har bir bo'limning o'ziga yarasha funksiyalari mavjud.

- Lover Interface Bar (Interfeysning quyi qatori) Dastur oynasining pastgi qismida joylashgan. Bu qismda asosiy oynaning qay tarzda ko'rinish holatlarini sozlash tugmalari hamda animatsiyalash paneli ham joylashgan.

### **III BOB yuzasidan nazorat savollari**

1. 2D multfilmi animatsion amaliy dasturlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Adobe Flash dasturi va uning imkoniyatlari.
3. Primitiv 2D animatsion dasturlar va ularning imkoniyatlari haqida tushuntiring.
4. 3D multfilmi animatsion amaliy dasturlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Autodesk 3dMax va Autodesk Maya dasturlari, ularning imkoniyatlari.
6. Professional 3D animatsion dasturlar va ularning imkoniyatlari haqida tushuntiring.


### **III BOB bo‘yicha test savollari.**

1. 2D multfilmi animatsion amaliy dasturlari orasida eng professional deb hisoblanadigan dasturni belgilang.
  - a) Adobe flash;
  - b) Papgayo;
  - c) Animation stand;
  - d) Toon boom studio.
2. Personaj og‘iz harakatini (lablar) animatsiyalash va sinxronlash uchun mo‘ljallangan dastur nomini tanlang.
  - a) Toon boom studio;
  - b) Papgayo;
  - c) Plastic animation paper;
  - d) Animation stand.
3. Qaysi dasturda planned yordamida chizish hamda rastrli tasvirlarni vektor xolatiga keltirish xususiyati mavjud?
  - a) Toon boom studio;
  - b) Papgayo;
  - c) Plastic animation paper;
  - d) Animation stand.
4. Adobe Flash dasturida tayyorlangan fayl formatini belgilang.
  - a) .swf;
  - b) .gif;
  - c) .psd;
  - d) .cdr.
5. CTP-PRO dasturi nechta turli formatlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega?
  - a) 10 ga yaqin;
  - b) 100 dan ziyod;
  - c) 40 dan ortiq;
  - d) 100 ga yaqin.

- 6.** Qaysi dastur har xil turdag'i animatsiyalarni yaratish uchun yagona muhit hisoblanadi?
- a) Bauhaus mirage;
  - b) Plastic animation paper;
  - c) CTP;
  - d) Animation stand.
- 7.** Quyidagi dasturlarning qaysi biri 3D texnologiya asosida ishlaydi?
- a) TOONZ;
  - b) CELACTION;
  - c) MOHO
  - d) Animation stand.
- 8.** Autodesk kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan dastur berilmagan qatorni tanlang.
- a) Maya;
  - b) 3ds Max;
  - c) iClone Pro
  - d) AutoCad.
- 9.** 3ds max dasuri imkoniyatlarini quyidagilardan qaysi biri orqali oshirish mumkin?
- a) Plaginlar;
  - b) Drayverlar;
  - c) Funksiyalar;
  - d) Modifikatorlar.
- 10.** 3D modellashtirish sohasida nisbatan yangi dasturni belgilang.
- a) Maya;
  - b) 3ds max;
  - c) Adobe Flash;
  - d) Corel Draw.

## IV BOB. MULTIPLIKATSIYA MAHSULOTLARINING ASOSIY ELEMENTLARI

### 4.1. Personajning kreativ g‘oyasi va uni yaratish jarayoni



4.1-rasm. Personajni umumiylar yaratish jarayoni

#### 1. Ssenariy

Ushbu bosqichda siz avval ish uchun tayyorlangan ssenariy bilan tanishasiz (4.1-rasm). Ssenariy – adabiy va dramatik ish bo‘lib, har bir sahnasi va suhbatini batafsil bayon qiladi. Ssenariy animatsion filmni tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U pyesaga o’xshaydi, har bir sahnani va suhbatlarini so‘zlar bilan batafsil ifodalaydi.

#### 2. Eskiz

Eskiz-ko‘p vaqt olmaydigan dastlabki qoralama, san’at asarining g‘oyasini belgilash.

Eskiz kontseptsiyadan oldin keladi va 3D modellashtirishning asosi hisoblanadi. Eskizlar yaratishda katta e’tibor qaratiladigan jihat bu personajlar va sahnalar yaratishda barchasi bir xil stilda bo‘lishidadir (4.2-rasm).



4.2-rasm. Personaj uchun eskizlar chizish

### 3. 3D modellashtirish

Ob'ektning uch o'lchovli modelini yaratish jarayoni. 3D modellash vazifasi kerakli obyektning vizual 3D tasvirini yaratishdir. Shunday qilib, model haqiqiy dunyodagi narsalarga mos kelishi va to'liq mavhum bo'lishi mumkin (4.3-rasm).



4.3-rasm. Personajni modellashtirish

#### 4. Raskadrovka

Multfilm yaratish uchun yordamchi vosita sifatida xizmat qiladigan chizmalarning ketma-ketligi. Multfilm sahnalashtirilib, birinchi vizual ko‘rinishga keladi. Yaratilish jarayonining guvohi bo‘ling va hatto unda ishtirok eting (4.4-rasm).



4.4-rasm. Multfilm raskadrovkasi

#### 5.Tekstura

Teksturlar – yasalgan 3D madellarga rang berish, rang yoki tasavvurning illyuziyasi uchun polygonal model yuzasiga surilgan raster tasvir.



4.5-rasm. Personaj modeliga tekstura berish jarayoni

Tekstura animatsiyasidagi muhim bosqich hisoblaniladi (4.5-rasm). Teksturalarning sifati belgi haqiqiyligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu bosqichda siz dizayni bo'yicha asosiy manipulyatsiyani tugatasiz.

## 6.Rigging

3D animatsiyada animatsiya uchun belgi tayyorlash, shu jumladan, 3D qurilma modeli, virtual «skelet» – «suyaklar» yoki «bo'g'inlar» to'plamini yaratish va joylashtirish jarayonidir. Bu skeleton orqali bu belgi harakatlana oladi (4.6-rasm).



4.6-rasm. Rigging jarayoni

## 7. Animatsiya

Animatsiya eng qiyin bosqichlaridan biri bo'lib, u 3D modelning harakati yoki 3D narsalar orasidagi harakatni taqlid qilish. Animatsiyada kameralar, personajlar hamda detallar ssenariydagi holatidan kelib chiqib harakatlantiriladi (4.7-rasm).



4.7-rasm. Animatsiya jarayoni

## 8.Vizualizatsiya

Ushbu bosqichda loyihaning mantiqiy komponenti paydo bo‘ladi. Xarakter uning atrofida yashay boshlaydi. Bu erda hamma narsa uning rangi, yorug‘liklari, bump-normallari(g‘adir-budirlilik, notekislik), aks qaytaruvchanlik, yorug‘lik o‘tkazuvchalik, tiniqlik, shisha ko‘rinish, shaffoflik va hakazolar ishlab chiqilishiga bog‘liq (4.8-rasm).

Vizualizatsiya – maqsadning tasavvurdagi obrazini yaratish. Nimaga erishishni istashingizni, buni qanday amalga oshirishni tasavvur qilasiz.

Samarali vizualizatsiya istak obekti va unga erishish harakatlarini o‘z ichiga oladi. Maqsadingizga erishish uchun har bir qadamni tasavvur etishingizga to‘g‘ri keladi: qaysi yo‘nalishda ishlaysiz, qanday to‘sislarni yengishingiz lozim va buni qanday amalga oshirasiz. Bu oddiy orzular kabi u qadar yoqimli emas, biroq ko‘plab sohalarda haqiqiy natijalarga erishishda yordam beradi.



4.8-rasm. Personajlarga yorug‘lik berish jarayoni

## 9.Render

Ushbu bosqichda vektorli makon modeli tekis (rastr) tasvirga aylanadi. Render bosqichida animatsiya qilingan tayyor sahnalar va visualizatsiya qilinganlarni har bir kadri rasm xolatga keltiriladi. Render qilingan har bir kadr yig‘ilib video ko‘rinishga keltiriladi (4.9-rasm).



4.9-rasm. Render jarayoni

## **10. Visual effektlar.**


Ushbu bosqichning maqsadi turli xil tasavur qilish va maxsus effektlar (tabiiy hodisalar: tuman, bulut, suv toshqini, portlashlar va boshqalar) bilan tanishish, ularni animatsiyada qo'llashdir. Visual effektlar bilan shug'ullanayotgan mutaxassis VFX rassomi yoki maxsus effektli rassom deb ataladi.

## **11. Mattepaiting**

Bo'yash (zamonaviy jargonda «Matt-paint» yoki «Matt-Painting» deb nomlanadi) texnologiya estrodiol tortishish, unda ramkaning to'liq o'lchamli qismi atrof-muhit tasavvurini yaratish uchun rasm bilan birlashtirilgan bo'lib, unda bevosita to'g'ridan-to'g'ri olib bo'lmaydi.

## **12. Kompozitsiya.**

Kompozitsiya (inglizcha «composition» so'zidan olingan bo'lib – tarkib degan ma'noni bildiradi) – bu bir necha qatlamlarni birlashtirib, yaxlit tasvirni yaratishdir. Bu yuqoridagi barcha qadamlarning natijasini to'plash jarayoni hisoblaniladi. Kompozitsiya suratga olingan fotosurat yoki video materialining bir necha qatlamlarini qo'shib, ko'pincha birlashtirib, yaxlit tasvirni yaratadi. Kompozitsiyani bajarishning asosiy vazifasi, tomoshabinni ekranda ko'rgan hamma narsalar bir butun rasmning bir qismiga aylanishiga ishontirishdir (4.10-rasm).



4.10-rasm. Yakuniy bosqich

Hozirgi kunda multfilmlar yaratish borasida ishlab chiqilgan ko‘plab maqolalarda qahramonlarni «jonlantirish» borasida turlicha yondashuvlar berilib kelinmoqda. Ularning aksariyati quyidagicha xarakterlangan:

Tashqi ko‘rinish;  
Xarakter;  
Temperament;  
Qadr-qimmat;  
Kamchiliklar;  
Baholash tizimdagи dunyoqarash;  
Odatlar;  
So‘zlashish usuli;  
Turli fazilatlari.

Bunda, ayniqsa, to‘la yutuqqa erishish uchun qahramonimizni tashkil etuvchi qismlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar, odatlar va qandaydir xususiyatlar hamda temperament va xarakter bir xil narsa emasligini unutmasliligimiz kerak.

Personajlarning tuzilishini va dialogini ifodalashda biz odatda biror idealga etalon sifatida yondashishga harakat qilamiz. Buning zerikarli suhbatdan chalg‘itish maqsadida kichikroq detalni yoki harakatni kiritamiz va bunda bir xillikdan qo‘chishning har xil usullari mavjud. Qahramonlarni tasvirlashda ehtiyyot bo‘lgan maqsadga muvofiq, ba’zan esa umuman tasvirlab ketilmaydi, bu holda tushunarsizlikka olib keladi, ba’zan esa juda ko‘p tasvirlashlar tomoshabinni zerikishiga sabab bo‘ladi. Keragidan ortiqcha harakat va luqma tashlash ham multiplikatsiya san’atida kamchiliklardan biri hisoblanadi. Chegara emotsiyani va his-tuyg‘uni ifodalash paytida ham e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, «U baxtli edi» deyish o‘rniga «Uning ko‘zlari porladi va u tabassum qildi» deb ifodalash yaxshiroq.

Personajni jonlantirishda qiziqarli syujet hatto tayyor bo‘lsa ham, shoshilib mayda detallarga e’tibor bermaslik kabi xatolarga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Personajimizni u juda yomon obraz bo‘lsa ham sevishimiz va shu yo‘l bilan tomoshabinda chuqr taassurot qoldirishiga erishishiladi.

Insonlarda bo‘lganidek qahramonda ham o‘z maqsadi bo‘ladi. Bu haqda matnda keltirilmasa ham unutib yubormaslik va qahramon oldiga tanlash imkonи beriladi. Biz yaratayotgan qahramonlar yashaydilar, tajriba to‘playdi, o‘sadi aqli bo‘la boshlaydilar. Ba’zan esa kuchli bosim va tazyiqlar ostida sinishlari, toblanishlari hamda ruhiy jarohatlar oladilar va ulardan qutuladilar ham.

Qahramon bir joyda to‘xtab qolmay balki, o‘zgarib boradi. Yaratildi va shu holatda uni syujet davomida ushlab turish yetarli deb o‘ylash ham xato hisoblanadi. Uning so‘zlashish manevrlarini, odatlarini, maqsadlarini orzulari va tashqi ko‘rinishini ham o‘zgartirib borish kerak bo‘ladi. Buni qahramonimiz boshqa qahramonlar bilan to‘qnashishi oqibatida ham amalga oshirish mumkin (4.11-rasm).



4.11-rasm. «Toshbaqanining sarguzashtlari» (2016) multfilmi personaji

Biror-bir dastur yordamida personajning g‘oyasini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun aslida qog‘oz va qalam ham etarli. Ba’zan o‘z qobiliyatimizdan kelib chiqib nimadir yangi va noodatiy biror narsa o‘ylab topishga harakat qilamiz. Buning uchun vaqt va mehnatimizni ayamaymiz. Shundagina original personajni yaratish mumkin bo‘ladi.

## **4.2. Primitiv multfilm yaratishning asosiy bosqichlari**

Shubhasiz, siz ham daftarning chetiga varaqlarni aylanayotganda harakatlanadigan belgini chizishga harakat qilgansiz. Bu bolaligida sehr kabi tuyuldi, shunday emasmi? Zamonaviy texnologiyalar xuddi shu soddaligi bilan jiddiyroq animatsiyalar yaratishga imkon beradi. Qo‘lda bo‘lgan vositalardan foydalaniib, siz o‘zingizning multfilmingizni tajribasiz yoki maxsus ma'lumotisiz suratga olishingiz mumkin. Mazkur mavzuda siz eng ko‘p ishlatiladigan vositalar - kamera, oddiy video muharriri va tasavvur yordamida qanday qilib multfilm qilishni o‘rganasiz.

«Timsoh Gena va Cheburashka», «Matroskin va Sharik», «Tom va Jerri», «Timon va Pumba» - biz sevimli multfilmlarimiz qahramonlari bilan ulg‘ayganmiz va chizilgan belgilar ekranda qanday jonlanishini o‘ylamagan edik. Hatto biz kattalar ham rangli kadrlar ortida qanday ish turganini to‘liq anglamaymiz.

Bir asrdan ko‘proq tarix davomida raqsga tushadigan rasmlar ulkan o‘zgarishlarga duch keldi - klassik qo‘lda va chizilgan animatsiya, qo‘g‘irchoqlar va plastilin figuralaridan kserografiya va nihoyat, 3D modellarga qadar. Zamonaviy multfilmlar yanada batafsilroq va murakkabroq ko‘rinishga ega, ammo animatsiyaning asosiy prinsipi o‘zgarmagan, multfilm hanuzgacha bir-birining o‘rnini bosuvchi asosiy kadrlar seriyasidir.

Multfilmlar, odatda, yaratilish jarayoni 3 asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi.

Kompyuterdan oldingi animatsiya davrida o‘nlab animatorlar mumtoz multfilmlar ustida ishladilar, shablonlar va proektorlarni, multfilm mashinalari va fotosurat kattalashtiruvchilarni ishlashga bog‘lashdi. Endi siz eng oddiy kompyuterda multfilm yaratishingiz mumkin.

### ***1-bosqich. G‘oyaning paydo bo‘lishi va shakllanishi***

Multfilm, har qanday hikoya singari, g‘oyadan boshlanadi, shuning uchun birinchi navbatda nimani aytib berishni o‘zingiz hal qiling. Bu siz tanlagan syujet yoki hikoyaning ijrosi kabi bo‘lishi mumkin. To‘liq dostonlarga bormang - qisqa eskizdan boshlang. Esda tutingki, bir daqiqали animatsion klip ham yaxshi yozilgan ssenariy va ideal holda to‘liq konsepsiya rejasini talab qiladi.

Multfilmning janri va kayfiyati to‘g‘risida qaror qabul qiling. Bu bolalar uchun quvnoq rasm yoki kattalar uchun chuqur ohanglar bilan lirik video bo‘ladi. Multfilmda sodir bo‘lishi kerak bo‘lgan voqealarni sanab o‘ting, asosiy belgilarni belgilang (o‘zingizni 2-3 belgi bilan cheklashingiz yaxshiroq). Qanday qarashlari va o‘zini qanday tutishlari kerakligini hal qiling. Ssenariyni tuzing, unda joylar ko‘rsatilgan, belgilar satrlari aniqlangan va voqealarni namoyish qilishning taxminiy rejalari keltirilgan bo‘lishi kerak.

Multfilm g‘oyasi istalgan joydan va deyarli hamma narsadan kelib chiqishi mumkin. G‘oyani bitta so‘z, jumla, rang, hid, tovush, begona bilan suhbatlashish yoki boshqa birovning suhbatini tinglash orqali boshlash mumkin. Bu uchqun faqat o‘zingiz yoki boshqalar bilan ushbu g‘oyani ishlab chiqishni istagan muloqotni boshlash uchun etarli bo‘lishi kerak.

G‘oyalar qiziqarli va sodda bo‘lishi kerak, siz hech qachon bitta g‘oyaga shunchalik berilmasligingiz kerakki, agar u yetarli bo‘lmasa, uni o‘ldirishga tayyor bo‘lmaysiz. Yomon g‘oyaga bog‘lanish sizni chiqarib ololmaydigan maqollar burchagiga tushib qolishi mumkin.

Siz izlashga arziydi deb o‘ylagan yaxshi g‘oyaning asosiy shartlarini ishlab chiqqandan so‘ng, uni hikoya tarziga aylantirish kerak bo‘ladi. Ushbu bo‘sh voqe rasmiy qisqa hikoya, ssenariy yoki ssenariy emas, bu umumiyligi hikoya yoyining asosiy g‘oyasi. Ushbu hikoyani yaxshiroq o‘ylash usuli - bu sizning g‘oyangizning konturi yoki yozma mavhumligi. Bu ayni paytda siz loyihaga kiritmoqchi bo‘lgan asosiy tafsilotlarni, masalan, personajlar kimligini yoki ba’zi bir katta voqealarni yaratishni rejalashtirish vaqtি keldi. Ushbu g‘oya yoki hikoya komponenti davomida o‘zingizga beradigan ba’zi savollar:

Personajlar kim? Ushbu multfilm nima uchun mo‘ljallangan? Sizning tinglovchilaringiz kim? Ushbu g‘oyada konflikt nima? Yakun qanday bo‘lishi kerak? Kim mening g‘oyamdan foydalanishni xohlaydi? Kim mening g‘oyamni sotib olishni xohlaydi? Mening tinglovchilarim uchun to‘lov qanday?

Agar siz ushbu savollarga javob bera olsangiz, siz ishlab chiqarish jarayonida bir qadam oldinga borishga tayyorsiz.

## **Ssenariy**

Ssenariy - bu voqeanning rasmiy yozma shakli. Uning ichida asosiy qahramonlar harakati, atrof-muhit, vaqt, harakatlar va suhbatlar mavjud. Ushbu adabiy shakl prekursiya va prodyuserlar guruhiga umumiy hikoyaning vizual g‘oyasini yaratish uchun mo‘ljallangan. Dastlabki ishlab chiqarish va prodyuserlik guruhlaridagi ko‘plab odamlar ssenariyni ko‘rib chiqadilar va undan tezda ma'lumot to‘plashlari kerak. 3D animatsiya mahsulotlari odatda siz namoyish qilayotgan, tinglovchilarga aytmaydigan hikoyalardir. Shuning uchun, senariy odatda tinglovchilarning o‘tirib o‘qishi uchun muhim mahsulot emas. Vizual hikoya qilish sohasida ishlamaydigan ko‘pchilik odamlar nima uchun ba’zi tavsiflar ssenariyga kiritilganligini yoki senariydan tashqarida qolganligini tushunmaydilar. Ssenariyda turli xil ishlab chiqarish guruhlari nima yaratilishini sbilish uchun ekranda ko‘riladigan va eshitiladigan narsalarni tasvirlashi kerak. Ssenariy formati tezkor format hisoblanadi va yaxshi ssenariy doim ko‘plab mashq talab qiladi.

Ssenariy - bu ishlab chiqarishning qolgan qismi uchun yozilgan magistral tuzilish.

Yozma ssenariy uchun odatdagি format odatda har bir sahifada ekranning, taxminan, 1 daqiqasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu format 3D animatsiya va film sanoatida juda standartdir.

Bugungi kunda bozorda ko‘plab senariylarni yozish dasturlari mavjud. Ushbu dasturiy ta'minot to‘plamlari senariy muallifiga faqat senariy formatini emas, balki faqat hikoyaning mazmuniga e'tiborni qaratishga yordam beradi.

Ssenariyning odatda uzunligi loyiha turiga bog‘liq. Badiiy film senariysi uzunligi taxminan 100 dan 120 betgacha. Televizion dasturning 30 daqiqали epizodi taxminan 15 dan 22 betgacha. Shuni esda tutish kerakki, 30 daqiqalik televizion epizodi odatda atigi 22 daqiqani tashkil qiladi, chunki 30 daqiqали TV dasturda 8 daqiqalik reklama roliklari mavjud.

### ***2-bosqich. Multfilmni yaratish jarayoni***

Eng qulay ko‘rinadigan animatsiya turini tanlang. Agar siz rasm chizishingiz mumkin bo‘lsa, qalam va bo‘yoqlardan, sichqoncha va grafik planshetdan

foydalaning. Agar yo‘q bo‘lsa, plastilindan eski aplike yoki mog‘or shakllariga murojaat qilishga harakat qiling. Agar multfilm qahramonlar haqqoniy chiqishini xohlasangiz, multfilmdagi personajlar uchun eski o‘yinchoqlar va qo‘g‘irchoqlardan foydalanishingiz mumkin.

Agar iloji bo‘lsa, chizilgan rasmlarni skanerlash yaxshiroqdir, ammo boshqa barcha usullar uchun sizga kamera kerak bo‘ladi. Rangli qog‘oz va qo‘lbola vositalardan bezaklarni oldindan tayyorlang. Agar siz g‘altakning animatsiyasiga qaror qilsangiz, qog‘oz belgilarini qismlarga ajratib oling - boshini, tanasini va oyoq-qo‘llarini alohida-alohida ajratib oling. Shu tarzda siz ularni osongina harakatga keltirishingiz mumkin. Siz materiallarni yoyishingiz va kamerangizni o‘rnatishingiz mumkin bo‘lgan yaxshi yorug‘lik bilan aniq maydonni tayyorlang. Ideal holda, u shtativga o‘rnatilishi kerak. Belgilarni silliq siljiting va rasmga oling, yangi harakat - yangi ramka.

### **3-bosqich. Olingan rasmlar asosida multfilmni shakllantirish**



4.12-rasm. Videomontaj dasturida rasmlarni joylashtirish

Kadrlarni birlashtirish va ularga harakat berish uchun sizga multfilmlar yaratish dasturi kerak bo‘ladi. Ayniqsa, yangi o‘rganuvchilar va havaskorlar yaratishi uchun

Videomontaj kabi oddiy muharrirlar ixtiro qilindi. Bir necha daqiqada animatsion filmga rasmlarni yopishtirishingiz mumkin. Siz muharrirni yuklab olishingiz, shaxsiy kompyuteringizga o‘rnatishingiz va 3 oddiy amalni bajarishingiz kerak.

**1-amal.** Loyiha yarating va rasmlarni qo‘sning Fayl brauzerida rasmlar joylashgan papkani toping. «Fotosurat» elementi yonida «Ko‘rgazma» qatori belgilanganligiga ishonch hosil qiling. CTRL tugmachasini bosib ushlab turing, kerakli rasmlarni belgilang va «Qo‘sish» tugmasini bosing. Suratlarni slayd shkalasida kerakli tartibda joylashtiring (4.12-rasm).

**2-amal.** Kadrlarning davomiyligini sozlang Har bir rasmning ko‘rsatuv vaqtiga 10 soniyani tashkil qiladi, ammo bu multfilm uchun juda ko‘p. «Tahrirlash» yorlig‘iga o‘ting va har bir ramka uchun davomiyligini 1 soniya qilib qo‘ying. O‘tish talab qilinmaydi, shuning uchun barcha slaydlar orasidagi kataklarda davomiylikni 0 ga sozlang (4.13-rasm).



4.13-rasm. Rasmlar oralig‘iga vaqtini belgilash

### **3-amal.** Soundtrack qo'shish

«Musiqa» yorlig'ida siz loyihaga audio treklarni qo'shishingiz mumkin. Bu oldindan tayyorlangan fon musiqasi yoki ovozli yozuv bo'lishi mumkin. Yuklab olingan fayllarni qisqartirish, balandroq yoki jim qilish mumkin (4.14-rasm).



4.14-rasm. Animatsiyaga musiqa qo'shish

Multfilm deyarli tayyor - siz uni kerakli formatda saqlashingiz kerak. Hech qanday murakkab harakatlar va maxsus shartlar yo'q, bir necha daqiqa - va sizning tezkor suratlaringiz to'liq filmga aylandi. Yuqorida keltirilganlar sizning g'oyalaringizni to'liq amalga oshirish uchun multfilmlar yaratish uchun dastur tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlarning kichik bir qismidir. Quyida siz ish jarayonini yengillashtiradigan va natijani professionalroq qiladigan yana bir nechta ushbu dastur uchun tegishli funksiyalarini ko'rishingiz mumkin:

- Chroma Key yordamida raqamlı olamlarga sayohat qilish uchun o'z belgilaringizni yuboring, bir necha marta bosish bilan fonni o'zgartiring yoki ramkaga yangi belgilar qo'shing;
- Multfilm atmosferasini boshqaring! Videoni qayta ishslash dasturi rang balansi sozlamalarini o'zgartirishga, yanada boy va yorqin soyalarni

qo'shishga yoki aksincha ranglarni «egri chiziqlar» yordamida o'chirishga imkon beradi;

- «Matn va Grafika» funksiyasi yordamida ramkaga matn yoki subtitrlar qo'shing, shu bilan birga siz o'zingiz tanlagan matnning ko'rinishi va joylashuvini tahrirlang;
- Videoni yorqin ochilish sarlavhalari bilan boshlang - buning uchun tegishli bo'limda «Sarlavhalar yaratish» tugmchasini bosing va slaydni multfilmingiz uslubida joylashtiring;
- Chiqarilgan video parametrlarini aniq sozlash orqali siz o'zingizning g'oyalaringizga qarab animatsiyani keskinroq yoki yumshoq qilib, kvadrat tezligini sozlappingiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda ushbu dastur yordamida primitive ko'rinishdagi animatsiya va multfilmlarni qisqa vaqt oralig'ida tayyorlash imkoniyatiga egasiz.

#### **4.3. Animatsiya tamoyillari**

Har qanday tajribaga ega har qanday animator Uolt Disney animatsion studiyasining asoschilarini tomonidan yaratilgan animatsiyaning o'n ikkita asosiy tamoyillarini tushunishi kerak. Ushbu tamoyillarning asl maqsadi, animatorlar fizikaning asosiy qonunlariga amal qilgan holda realistik animatsiyalarni yaratish bo'yicha umumiy fikrga ega bo'lishlari uchun umumiy qoidalar to'plamidan foydalanishi bo'lgan.

Animatsiyaning o'n ikkita asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Siqilish va cho'zilish
2. Tayyorlanish
3. Sahnalashtirish
4. To'g'ridan-to'g'ri harakatlar va holatdan-holatga
5. Ketma-ket va bir-birini takrorlovchi harakatlar
6. Tezlanish va sekinlanish
7. Yoylar
8. Ikkilamchi harakat

9. Vaqt

10. Mubolag‘a


11. Qattiq chizma

12. Talab qilish (murojaat)

### **1. Siqilish va cho‘zilish**

Harakatlanayotgan narsa og‘irlik va mavjudligini ko‘rsatish uchun siqilib, cho‘zilib ketadi. Ushbu tamoyilning eng asosiy namoyishi - bu koptokning deformatsiyasi.

To‘p yerga tushganda, u yerga urilguncha cho‘zilib ketadi, yerga urilgach koptok siqiladi. Keyin to‘p 4.15-rasmda ko‘rinib turganidek, yerdan sakrab ko‘tarilganda yana cho‘zilib ketadi.




4.15-rasm. Koptokcha animatsiyasining har xil holati

Siqilish va cho‘zilish tamoyili animatsiyaning eng kichik qismidan boshlab to eng katta harakatigacha bo‘lgan hamma joyda amal qiladi. Obyektga nisbatan siqilish va cho‘zilish deformatsiyani yoki holatning o‘zgarishini anglatishi mumkin. Masalan, siqiluvchanlik va cho‘ziluvchanlik deforatsiyasini personaj ko‘zini pirpiratishda ham ko‘rish mumkin. 4.16-rasmda miltillashning asosiy tugmachalarida ko‘zning yaqinlashishi ko‘rsatilgan.

Ushbu holatlar quyidagicha:


1. Ko‘z asl holatida.
2. Ko‘z pastki holatda siqib qo‘yilgan.
3. Ko‘z ajablanadigan holatda cho‘zilgan.
4. Ko‘z asl holatiga va shakliga qaytadi.



4.16-rasm. Ko‘z ifodasining 4 xil holati

Katta miqyosli harakatlarda (masalan, sakrab tushayotgan odam), bu personaj geometriyasi siqilish va cho‘zilish emas, balki butun personaj holati va soyasi siqiladi va cho‘zaladi. 4.17-rasmida ushbu holatlar bo‘ylab harakatlanuvchi sakrab tushadigan personaj tasvirlangan:

1. Personajni tik turgan joyidan boshlaydi.
2. U sakrashni boshlash uchun cho‘kadi (siqilish).
3. U qo‘llari va oyoqlarini cho‘zib oldinga sakraydi (cho‘zilish).
4. U oyoqlarini gavda yonidan cho‘zgan holda yana siqiladi.
5. Belgining tushishini kutish uchun yana bir bor cho‘zilib ketadi.
6. U sakrash joyiga tushganda yana siqiladi.
7. U tik turgan joyiga qaytadi.




4.17-rasm. Holatlar bo‘ylab harakatlanuvchi personaj

## 2. Tayyorlanish


Tayyorlanish - bu tinglovchilar nima bo‘lishini sodir bo‘lishidan oldin ko‘rishlari yoki tushunishlari kerakligini ko‘rsatadigan prinsipidir. Tegishli signal berilmagan tomoshabinlar ekranda sodir bo‘layotgan voqealarni kutib qolishi mumkin va siz auditoriya hech narsani kutib qolishini xohlamaysiz.

Misol tariqasida boksching animatsion tasvirini tasavvur qiling. Animatsiya dunyosida biz tomoshabinlarga katta nokaut zarbasi qachon yuz berishini bilishini istaymiz. Buni amalga oshirish uchun sizda personaj katta shamol holatiga o‘tishi kerak va agar iloji bo‘lsa, zarba berishdan oldin o‘z holatini bir oz ushlab turilishi kerak. 4.18-rasmda ushbu pozitsiya ko‘rsatilgan. Albatta, haqiqiy dunyoda buni qilgan bokschi raqibi tomonidan bir zumda yiqitilishi mumkin edi. Boksni tomosha qilayotganimizda, biz olishuvning yarmini sog‘inamiz, chunki bokschilar juda tez harakatlanmoqda va raqib har qanday harakatni kutishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilmoqda.



4.18-rasm. Bokschining zarba berish jarayoni animatsiyasi

Tayyorlanish tamoyiliga ko‘ra, odatda, harakat qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanuvchi sifatida tasvirlanadi. 4.18-rasmga e’tibor bering, bokschi chapga zarba berish uchun o‘ngga buriladi.




4.19-rasm. Neytral holatda turgan personaj, o‘ng oyoq bilan qadam qo‘yishga tayyorlangan va chap oyoqqa og‘ishgan personaj

Tayyorlanish tamoyili har doim ham shunday ko‘rinmaydi. Bu realistik animatsiyaga yordam beradi. Oyoqlaringizni yelkangizning kengligida turing va keyin o‘ng oyog‘ingiz bilan oldinga qadam qo‘ying. Ushbu o‘ng oyoq qadaminibajarish uchun muvozanat uchun avval o‘z vazningizni chap oyog‘ingizga siljitishingiz kerakligini payqadingizmi? O‘ngga harakat qilish uchun birinchichapga, aksincha harakat qilish kerak. 4.19-rasmda ushbu misol keltirilgan.


### **3. Sahnalashtirish**

Sahnalashtirish - bu sizning ekraningizni animatsiya harakati va obyektlarning joylashuvi bilan tomoshabinlarga nima bo‘layotganini yaxshiroq tushunishga imkon beradigan tarzda joylashtirasiz. Sahnalashtirish orqali siz harakatni yetkazish uchun eng aniq shaklda kadr tuzasiz. Masalan, agar ikkita personaj bir-biri bilangaplashayotgan bo‘lsa, ushbu g‘oyani eng yaxshi tarzda namoyish etish uchun siz ularni bir-biriga yaqinlashtirib, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishingizni xohlaysiz. Biroq, film va televizion namoyish uchun siz ularni kameraga qaratishingiz kerak. Shunday qilib, siz personajlarni kameraga va bir-biriga qarab sahnalashingiz kerak. 4.20-rasmda ikki kishilik kadrni sahnalashtirish uchun kamerani yaxshi joylashtirish misollari keltirilgan.



4.20-rasm. Ikki kishilik kadrni sahnalashtirish uchun kamerani yaxshi joylashtirish

4.21-rasmda xuddi shu ikki kishining gaplashishini sahnalashning noto‘g‘iri usuli ko‘rsatilgan. Tepadan tortishish yordamida tomoshabinlar personajlarning yuz ifodalarini yoki reaksiyalarini ko‘ra olmaydi.



4.21-rasm. Ikki kishi suhbatlashish sahnasining noto‘g‘ri joylashuv usuli  
Sahnalashtirish tamoyilining yana bir tarkibiy qismi - bu animator ishlata digan  
to‘plam. To‘plam - bu rassom raqamli 3D to‘plamni turli xil modellardan yig‘adigan  
sahna. Kimsa sahnaga rekvizitlarni joylashtirishi va ularni tabiiy ko‘rinishga  
keltirishi kerak. Obyektlar orasidagi masofa qanday qilib personaj A nuqtadan B  
nuqtaga o‘tishini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Masalan, qahramon xonaga kirib,  
stolda o‘tirishni xohlayotganini tasavvur qiling. Xonadagi stulning joylashuvi u  
odamning qanday o‘tirishini belgilaydi. Agar stul eshikdan bir necha metr narida  
bo‘lsa, personaj bir qadam tashlab, stulga o‘tirish va sakrab stulga aylanish uchun  
sakrashi mumkin. Ammo agar stul stolning tagida bo‘lsa, odam stulga borishi va uni  
o‘tirish uchun uni tortib olishi kerak.

#### **4. To‘g‘ridan-to‘g‘ri harakatlar va holatdan-holatga**

To‘g‘ridan-to‘g‘ri harakat va holatdan-holatga - an'anaviy animatsiyada  
qo‘llaniladigan ikkita usul, bu animatorga kadrga qanday yaqinlashishni bilishda  
yordam beradi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri harakat har bir ramkani ketma-ket tartibda chizishga olib  
keladi. Holatdan-holatga bu birinchi harakatning asosiy holatlarini chizish va keyin

kalit holatlari orasidagi harakatni belgilash texnikasi. Quyidagi ro‘yxat har bir texnikaning asosiy ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rsatadi.

***To‘g‘ridan-to‘g‘ri usulining ijobiy va salbiy tomonlari:***

- O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan harakatlar ketma-ketlikda yaratilgan animatsiyada yoki osonlikcha rejallashtirilishi mumkin bo‘lgan animatsiyaga shaxsni qo‘sishni mumkin bo‘lgan xatolarga yo‘l qo‘yishi yoki animatsiya jarayonida ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa animatorga katta yordam beradi.
- Siz osongina animatsiya harakatini yaratishingiz mumkin.
- Animatsiyadagi yetakchi animatorni yoki rejissyorni ko‘rsatish har xil dinlarga xosdir. Bu juda xilma-xillikdir, chunki boshlovchi yoki rejissor istagan vaqtingizda animatsiyani to‘liq ko‘rmasdan istagan paytda ko‘rishingiz mumkin va butun animatsiya hikoyasiz to‘liq tanqid qila olmaydi.
- Agar sizga animatsiyani o‘zgartirish kerak bo‘lsa, boshidan boshlappingiz kerak bo‘lishi mumkin.
- Har bir kadr uchun aniq kadrlar sonini rejallashtirish yo‘qligi sababli animatsiya ketma-ketlik uchun juda uzoq yoki juda qisqa ishlashi mumkin.

***Holatdan-holatga usulining ijobiy va salbiy tomonlari:***


- Animatsiyani kadrga rejallashtirish mumkin, bu esa animatsion kadrlarning uzoqroq ketma-ketligida aniq vaqtni belgilashga imkon beradi.
- Ko‘pincha harakat ravon animatsiya bo‘lmaydi; animatsiya holatdan-holatga o‘tayotgan personajga o‘xshab qolishi mumkin.

Animatsiyani blokirovkalashning dastlabki bosqichida katta yangilanishlarni talab qilmasdan tekshirish mumkin, chunki blokirovka qilish uchun ozgina kalit kerak bo‘ladi. Blokirovka - bu animatorning spektakl haqidagi g‘oyasini ko‘rsatish uchun ishlatiladigan kadr yoki ketma-ketlikning asosiy holatlarini yaratish animatsion bosqichiga berilgan atama.

## 5. Ketma-ket va bir-birini takrorlovchi harakatlar

**Ketma-ket harakatlar** animatorlarga obyektning butun qismi to‘xtaganidan keyin ham uning qismlari davom etishi mumkinligini ko‘rsatishga imkon beradi. Masalan, uzun sochli bir personaj yurishni to‘xtatganda, sochlari tanani / boshni haddan tashqari ko‘tarib, keyin to‘xtab qoladi.

**Bir-birini takrorlovchi harakatlar** butun tanani harakatlanayotganda turli xil tezlikda harakatlanadigan personajning tana qismlariga taalluqlidir. Buni, masalan, semiz personaj harakatlanganida uning qorin sohasi tebranishini ko‘rish mumkin, bunda qorin qismi butun personajdan tezroq yoki sekinroq harakatlanishi mumkin.



4.22-rasm. To‘p va uning “dum”ining bir-birini takrorlovchi harakati

4.22-rasmda obyektga ergashgan “dum”ning misoli ko‘rsatilgan. Keyingi va bir-birini takrorlaydigan amallarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

1. Katta to‘p dam olmoqda. Katta to‘pning kichkina to‘piga biriktirilgan dumibor.
2. Katta to‘p yuqoriga siljiydi, kichik to‘p esa orqasidan ergashadi.
3. Katta to‘p pastga, kichik to‘p esa katta to‘piga etib olishga harakat qilish uchun harakat qiladi.


4. Katta to‘p yana dam olishga keladi, kichik to‘p esa kattaroq to‘p harakatini takrorlaydi.

5. Kichkina to‘p katta to‘pning yonidan haddan tashqari o‘q bilan o‘tadi.

6. Kichik to‘p to‘xtaydi.

## **6. Tezlanish va sekinlanish**

Tezlanish va sekinlanish (shuningdek, qulaylik va osonlik bilan chiqib ketish deb ham ataladi) obyekt harakatlana boshlaganda yoki to‘xtab turganda talab qilinadigan tezlanish va sekinlanishni tavsiflaydi. Ushbu tamoyilning yaxshi namunasi - bu avtomobillar poygasi. Poyga mashinalari chiroq yashil rangga aylanguncha to‘xtash joyida harakatsiz turishadi. Keyin haydovchilar harakatlanadilar va yo‘lni pastga tushiradilar, ammo mashinalar zudlik bilan to‘xtash joyidan yuqori tezlikka o‘tmaydi. Buning uchun haydovchilar tezlikni oshirishi kerak; bu tezlanish.




4.23-rasm. To‘pning tezlanish va sekinlanish jarayoni animatsiyasi

Finish chizig‘idan o‘tib, haydovchilar tormozni bosib, avtomobillar vaqt o‘tishi bilan sekinlashishi uchun parashyut tashlaydilar. Ular darhol to‘xtab qolishmaydi, aksincha sekin-asta to‘xtashadi; bu sekinlanishga misol bo‘ladi.

Ushbu tamoyil pog‘onali shardan tortib murakkab bo‘lgan barcha animatsiyada ko‘rinadi. To‘p pozitsiyalari oralig‘iga qarab, tushish paytida pog‘ona to‘pi tezlashayotganini bilishingiz mumkin. 4.23-rasmda misol keltirilgan. Yiqilish boshida to‘p kadrlar orasida juda ko‘p harakatga ega emas. Bu to‘pni sekin harakatlanishiga olib keladi. Keyin to‘p yerga tegmoqchi bo‘lganida, kadr oralig‘i guruhdan ajralib turadi, bu esa to‘pni tezroq harakatlanishiga olib keladi. To‘pning tezligini o‘zgartirish uchun kadrlar orasidagi masofani farqlash ishlaydi, chunki kadr tezligi doimo o‘zgarmasdir.

## 7. Yoylar

Aksariyat ob'ektlar yoy bo‘ylab harakatlanadi.



4.24-rasm. Yoy harakatining namunasasi

Sizning qo‘llaringiz va oyoqlaringiz, masalan, bo‘g‘inlar atrofida aylanadi (bu aylanish nuqtalari 3D animatsiyada burilish nuqtalari deb ataladi). Siz to‘pni

uloqtirganingizda tortish kuchi ta'sir qiladi va to‘pni yerga tushiradi, bu esa uchish trayektoriyasini yoy harakatiga aylantiradi. Ba'zi mexanik narsalardan tashqari juda oz narsa chiziqli (to‘g‘ri) harakatda harakatlanadi. 4.24-rasmida yoy harakatining namunasi ko‘rsatilgan. Personaj sakrab tushganda, qo‘lni oldinga va orqaga silkitib, ikkita kamon hosil qilishini ko‘rishingiz mumkin.

## **8. Ikkilamchi harakat**

Ikkilamchi harakat asosiy harakatni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, siz yig‘layotgan ayolni do‘stingizga animatsiya shaklida jonlantiryapsiz va uning yaqin insoni endi u bilan ajrashganini tushuntirib beryapsiz. Ushbu sahnaning asosiy harakati – yig‘lash va tushuntirish. Siz sahnaning asosiy harakatini qo‘llab-quvvatlash uchun ikkinchi darajali harakatni qo‘sishiningiz mumkin - ayol burnini artishi yoki ko‘zlarini artib olish uchun ro‘molchasini olish uchun sumkaga qo‘l uzatishi.

Ikkinchi darajali harakatlar sahnaga komediya qo‘sishning yaxshi usuli bo‘lishi mumkin, ammo ular asosiy harakatga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ehtiyyot bo‘ling, agar bizning qahramonimiz sumkasidan ro‘molcha olib chiqmoqchi bo‘lsa, lekin ro‘molcha tiqilib qolsa yoki masalan, qahramon ro‘molchani topa olmasa, bu ushbu sahnaga qiziqish qo‘sishi mumkin. Ammo, agar personaj chindan ham ro‘molchani olish uchun kurash olib borsa va keyin ro‘molchani ololmasa, sumkani uloqtirsa, bu ikkinchi darajali harakat emotsional yig‘lashning asosiy harakatini o‘z zimmasiga oladi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun ehtiyyot bo‘ling!

## **9. Vaqt**

**GIF (Graphics Interchange Format).** Ushbu format formatdagi rasmda faqat 256 ta rangga ega bo'lishiga imkon berganligi sababli, Internetda asosiy chiziqlar va rangli grafikalar uchun foydalilanadi. Ushbu format aniq chiziqlar uchun yo'qotishsiz siqishni hamda tasvir ichida animatsiya va past aniqlikdagi videoni ko'rsatishga imkon beradi.

**PNG (Portable Network Graphics).** Ushbu format GIF formatini almashtirish uchun yaratilgan. PNG fayli GIF-ga qaraganda ko'proq rang variantlarini taqdim etadi, chunki u faqat 256 ta rang bilan chegaralanmaydi va shaffoflar uchun alfa kanalni olib boradi.

Quyidagi format fayllarida animatsiya bajarib bo'lmaydi.

**PSD (Adobe Photoshop Document).** Adobe Photoshop uchun ushbu maxsus format Photoshop qo'llab-quvvatlaydigan har qanday raqamli tasvir uchun juda yaxshi. Ushbu turdag'i alfa kanallari va tasvir qatlami variantlari mayjud. Bu yo'qotishsiz kompressordan foydalanadi, shuning uchun hech qanday ma'lumot yoki sifat yo'qolmaydi.

**PDF (Portable Document Format).** Ushbu ochiq format matnni, grafika, shriftlar, vektor satrlari va rasmni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan boshqa

ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Ushbu rasm turi ko'plab sanoat tarmoqlari tomonidan ish ko'rsatish uchun ishlab chiqarishning asosiy varianti sifatida ishlatiladi;

**EXR (OpenEXR).** Industrial Light & Magic tomonidan yaratilgan ushbu yuqori dinamik diapazonli tasvirlash (HDRI) modeli 3D animatsiya renderida qo'llaniladi. Ushbu turdag'i kanal har bir kanal uchun 16 bit hajmli ma'lumotlarini yo'qotish yoki yo'qotishsiz kompressiya turida olish imkonini beradi. Ushbu turdag'i shuningdek, nafaqat RGB (qizil, yashil va ko'k) kanallarida, balki RGBA (qizil, yashil, ko'k, alfa) kanallarida ham 3D-ko'rsatuv uchun ko'p kanalli chiqishlar, masalan, diffuz, spekulyarlik, shaffoflik, va soyaning ko'rsatilishi o'tadi.

### **Vektorli fayl formatlari**

**EPS (Encapsulated PostScript)** Ushbu oqilona bashorat qilinadigan PostScript fayl chop etilishi kerak bo'lgan rasm yoki matnni tavsiflaydi. PostScript fayl shaxsiy piksel ma'lumotlarini emas, balki bosilgan sahifani qanday joylashtirish bo'yicha buyruqlarga to'la.

PostScript fayllari vektorli grafikalar bilan yaxshi ishlaydi, chunki vektorlar matematika egri chiziqlar va nuqtalardan tashkil topgan ma'lumotlarga asoslangan.

**AI (Adobe Illustrator).** Ushbu xususiy format Adobe Illustrator bilan ishlatiladi. Bu vektorli san'atga xosdir va uni boshqa rasmlarni boshqarish dasturlarida, shu jumladan Adobe Photoshop, Adobe After Effects va Corel Paint dasturlarida ochish mumkin.

**FLA (Adobe Flash File).** Ushbu xususiy format Adobe Flash-da, an'anaviy animatsiya, veb-dizayn va video o'yinlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vektorli animatsiya dasturida qo'llaniladi.

**SWF (ShockWave Flash).** Ushbu fayl turi Adobe Flash bilan bog'langan bo'lib, o'zi mustaqil ravishda video pleyer va interaktiv o'yin pleyeri bo'lishi mumkin. Bu veb-brauzerlarda olib boriladigan o'yinlar va videolar uchun ommabop turdag'i fayl formati hisoblanadi.

## **Rang xususiyatlari**

Barcha kompyuter monitorlari va televizorlar bir-biridan biroz farq qilishini ko‘pchilikka ma’lum bo‘lsa kerak. Siz katta televizion do‘konga borgansiz va bir xil tasvirlarni namoyish etayotgan barcha televizorlarni yonma-yon ko‘rgansiz, ammo ularning barchasi rang va yorqinligi bilan har xil ko‘rinadi. Buning sababi ekranlarning aniq va izchil rangli namoyishi uchun sozlanmaganligidir.

Rangni kalibrlash barcha monitorlarni kirish va chiqish moslamalariga mos keladigan rang ko‘rsatkichlari va ranglarga javoban bir xil qilish usulini beradi. Ranglarni kalibrlash zarur, chunki siz mijoz uchun ishni tugatishni xohlamaysiz va u siz xohlagan ko‘rinishda ko‘rinishini xohlaysiz, faqat loyiha mijozning kompyuterida rang va yorqinligi bilan dahshatli ko‘rinishini aniqlaysiz.

Ranglarni kalibrlash uchun yorqinlik, gamma va rangni boshqarish vositalarini bir necha marta bosish kifoya qiladi. Uskuna, dasturiy ta'minot, yorug‘lik sharoitlari va rang maydoni bilan nima sodir bo‘lishini tushunishingiz kerak. Siz ko‘rgan va ishlaydigan monitorlarning hammasi ham kalibrlangan bo‘lishi shart emas, lekin siz ularni ko‘rish uchun to‘g‘ri darajalarni ta’minalash uchun chiqishdan oldin ishlaydigan monitorlar sozlanishi kerak.

Bir xil turdag'i monitorda bir xil tasvirni ko‘rsatadigan Mac va shaxsiy kompyuterlari tasvirlarni boshqacha aks ettiradi.

Siz 3D-rassom sifatida qila oladigan eng yaxshi narsa bu eng yaxshi kirish va chiqishni ta’minalash uchun rang bilan boshqariladigan muhitda ishlashdir. Rang bilan boshqariladigan muhit barcha monitorlarning bir xil bo‘lishini ta’minalash uchun rangni to‘g‘irlaydi. Buning uchun ikkita qo‘sishma moslama - kolorimetr va spektrofotometr kerak bo‘ladi.

Monitorda o‘tirgan va kompyuterga ulanadigan kolorimetr bir qator testlardan o‘tib, monitoring rang diapazonini aniqlaydi va buning uchun maxsus rang mahsulotini yaratadi. Kolorimetr, shuningdek, bir nechta monitorlarni ko‘rib chiqishi va displaylarning mos kelishiga imkon berish uchun markaziy rang ko‘rsatkichini yaratishi mumkin. Spektrofotometr printerdag'i bosma ranglarni tahlil

qiladi, shuning uchun siz kolorimetrdan foydalanib, monitordan ranglarga mos keladigan rang prolementini yaratishingiz mumkin.

Televizor yoki kompyuterdan foydalanadigan har kim ham o‘z qurilmalarini rangini kalibrashi kerak emas. Oxir oqibat, siz qila oladigan eng yaxshi narsa - raqamli dunyoda aksariyat odamlar uchun ishlaydigan tasvirni yaratishdir.

Tasvir yaratilishidan oldin siz tafovutlarni qoplastingiz mumkin. Agar siz kompyuterda bo‘lsangiz va rasm to‘g‘ri ko‘rinadigan bo‘lsa, siz Macda ko‘rish uchun ko‘rsatkichlarni qoraytirasiz. Agar siz Macda ishlayotgan bo‘lsangiz, kompyuterda yaxshi ko‘rinishga ega bo‘lish uchun ko‘rsatkichlarni ochishingiz mumkin. Har doim kelishmovchiliklar bo‘lishi mumkin, shuning uchun siz barcha monitorlarda yaxshi ko‘rish uchun kichik o‘zgarishlar kiritishingiz mumkin.

Ranglarni kalibrashda tekshirilishi kerak bo‘lgan yana bir omil - bu siz ishlashni rejalashtirgan rang rejimi. Rang rejimi - bu siz chiqadigan rang uchun ishlaydigan ranglarning o‘ziga xos xususiyati. Kompyuter yoki televizor ekranida ishlash uchun RGB rang rejimi eng yaxshisidir. Bosma mahsulotlar uchun siz CMYK rang rejimida ishlashni xohlaysiz. HSV va YUV rang rejimlari ham mavjud. Kiritish va chiqarishni turli xil rang rejimlarida ishlash mumkin, ammo har qanday rang yo‘qotilishini hisobga olish uchun siz buni tasvirni tahrirlashning dastlabki vaqtida bajarishingiz kerak. Bitta rang rejimida yaratilgan tasvirni boshqa rejimga o‘zgartirish jarayoni rang yo‘qotishiga olib kelishi mumkin, chunki yangi rejim asl palitrada mavjud bo‘lgan barcha ranglarga ega bo‘lmasi ligi mumkin.

**RGB rang modeli.** RGB qizil, yashil va ko‘k ranglarni anglatadi. RGB rejimida ushbu ranglar qo‘srimcha ravishda aralashtiriladi va monitorda yoki televizorda ko‘riladigan ranglarni hosil qiladi. Ushbu rang modeli insonning rangni idrok etishiga asoslanadi. Odamlar yorug‘likning to‘lqin uzunliklarini 400 dan 700 nanometrgacha (nm) ko‘rishadi. Ushbu intervalli bizga doimiy kamalakda binafsha rangdan qizil ranggacha ko‘rish imkoniyatini beradi. Bizning nazarimizda konus deb ataladigan retseptorlar qizil, yashil va ko‘k nurlarga sezgir hisoblanadi.

**CMYK rang modeli.** CMYK ko‘k, qizil, sariq va qora ranglarni anglatadi. CMYK rejimida ushbu ranglar maxsus bosib chiqarish uchun subtraktiv shaklda aralashtiriladi.

Ushbu subtraktiv model kompyuter uchun asl format emas, chunki ekranlar yorug‘lik bilan qo‘shimcha rang rejimida yaratilgan.

**HSV rang modeli.** HSV rang, to‘yinganlik va qiymatni anglatadi. Ushbu rang rejimi HSB (rang, to‘yinganlik va yorqinlik) va HSL (rang, to‘yinganlik va yorug‘lik) sifatida ham tanilgan. Ushbu rang modeli aslida RGB modelining o‘zgarishi bo‘lib, demak u ranglarni oson tanlashga imkon beradigan rang tanlovchi modeldir.

**YUV rang modeli.** YUV rang modeli luma (Y) va ikkita xrominans (UV) komponentlaridan foydalanadi. Luma - bu tasvirning yorqinligi va xromans - rang.

Ushbu rang modeli eski VHS lentasini raqamlashtirish kabi analog va raqamli uskunalar o‘rtasida interfeys uchun ishlatiladi. Ushbu format MPEG va JPEG formatlariga ma’lumotlarni siqish uchun ishlatiladi.

#### **IV BOB yuzasidan nazorat savollari**

1. Personajning kreativ g‘oyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Rassom personaj yaratish jarayonida qaysi jihatlarga ahamiyat berishi zarur?
3. Multfilmning muvaffaqqiyatga erishishida personajning ahamiyati.
4. Primitiv multfilim yaratish bosqichlarini tushuntiring.
5. Multfilm yaratish jarayonida eng murakkab jarayon qaysi? Nima uchun bunday deb hisoblaysiz?
6. Qanday turdagи sodda animatsion dasturlarni bilasiz?
7. Professional darajadagi multfilm mahsulotlarini yaratish jarayoni haqida tushuntiring.
8. Rasskadrovka tushunchasini izohlang va uning vazifasi nimadan iborat?
9. Rigging va teksturalash jarayonlarining vazifasi nimadan iborat?
10. Grafik fayl formatlari haqida ma’lumot bering.
11. Animatsiya mahsulotlari qaysi fayl formatlarida saqlanadi?

#### **IV BOB yuzasidan test savollari**

1. Personaj yaratish jarayoniga tegishli bosqichni belgilang.
  - a) Teksturalash;
  - b) Ovozlashtirish;
  - c) Montaj;
  - d) Rigging.
2. Sahna uchun yaratilgan chizmalarining ketma-ketligi bu - ...?
  - a) Teksturalash;
  - b) Rigging;
  - c) Raskadrovska;
  - d) Montaj.
3. Kompozitsiya so‘zi nima ma’noni bildiradi?
  - a) tartib;
  - b) tarkib;
  - c) birlashtirish;
  - d) sahna.
4. Primitiv multfilmlarning yaratilish jarayoni nechta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi?
  - a) 3 bosqich;
  - b) 4 bosqich;
  - c) 2 bosqich
  - d) 5 bosqich;
5. Primitiv multfilmlarning yaratilish jarayonida dastlabki bosqich qanday nomlanadi?
  - a) Multfilmni yaratish jarayoni;
  - b) Olingan rasmlarni asosida multfilmni shakllantirish;
  - c) G‘oyaning paydo bo‘lishi va shakllanishi;
  - d) Rassadrovska.
6. To‘liq metrajli multfilmlarni yaratish jarayonida ishlov berishgacha tayorgarlik jarayoni nima deyiladi?

- a) Prodakshin;
  - b) Pre-prodakshin;
  - c) Post-prodakshin;
  - d) To‘g‘ri javob berilmagan.
7. To‘liq metrajli multfilmlarni yaratish jarayonida qaysi bosqichda rasskadrovka bajariladi?
- a) Prodakshin;
  - b) Pre-prodakshin;
  - c) Post-prodakshin;
  - d) To‘g‘ri javob berilmagan.
8. Har bir personaj modellarining turli xil rakursda olingan tasvirlarining umumiy planda aks ettirilishi qaysi jarayonda amalga oshiriladi?
- a) Rasskadrovka;
  - b) Layouts;
  - c) Personaj modeli namunalari;
  - d) montaj.
9. Qaysi jarayonda personaj modellariga suyak va muskullar joylashtirib chiqsh amalga oshiriladi?
- a) Rigging (jondantirish);
  - b) Maket;
  - c) Teksturalash;
  - d) ovozlashtirish.
10. Quyidagi jarayonlarning qaysi biri post-prodakshin bosqichida amalga oshiriladi?
- a) Teksturalash;
  - b) Ovozlashtish;
  - c) Rigging;
  - d) Montaj.

## **BOB lar yuzasidan berigan test savol javoblari**

### I BOB test javoblari

1.c. 2.a. 3.c. 4.b. 5.a. 6.c. 7.b. 8.a. 9.b. 10.b.

### II BOB test javoblari

1.a. 2.b. 3c. 4.a. 5.c. 6.a. 7.a. 8.b. 9.b. 10.c.

### III BOB test javoblari

1.a. 2.b. 3.a. 4.a. 5.c. 6.a. 7.c. 8.c. 9.a. 10.a.

### IV BOB test javoblari

1.a. 2.c. 3.b. 4.a. 5.c. 6.b. 7.b. 8.c. 9.a. 10.b.

## GLOSSARIY

**Animator** – animatsiya yaratish jarayoni bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis.

**Animatsiya** (lat. Animare-jonlantirish) – harakatni taqlid qilish yoki statik jismlar shaklini o‘zgartirish. Animatsiya, shuningdek, shaxsiy rasmlar yoki sahnalarini kadrma-kadr suratga olish orqali yaratiladigan san’at turiga kiradi. Bir necha tasvir yoki kadrlarni ko‘rsatish orqali yaratiladigan harakat taqlidi. Televidenedagi multfilmlar animatsiyaning bir turidir. Kompyuterlardagi animatsiya multimedia taqdimotlarning eng asosiy tarkibiy qismlaridandir. Kompyuter monitorida ko‘rish mumkin bo‘lgan animatsiyani yaratish imkonini beruvchi ko‘plab dasturiy qo‘llanmalar mavjud. Animatsiya va video o‘rtasidagi farqqa e’tibor bering. Video davom etuvchi harakatdan iborat bo‘lib, diskret kadrlarga bo‘lingan bo‘lsa, animatsiya mustaqil rasmlar bilan boshlanib, ularni davom etuvchi harakat tasavvurini yaratish.

**Animatsiyalangan GIF** (ingl: animated GIF) - Tezda aks ettirilib, harakatlanuvchi tasvirni yaratuvchi GIF formatidagi tasvirlardan iborat fayl.

**Audiovizual asar** (ingl: audiovisual product) - O‘zaro bog‘liq kadrlarning (tovush jo‘rligida yoki tovush jo‘rligisiz) belgilangan tartibidan iborat bo‘lgan, tegishli texnik vositalar yordamida ko‘rish yoki eshitish (tovush jo‘rligida bo‘lsa) orqali qabul qilish uchun mo‘ljallangan asar. Audiovizual asarlar ichiga, ularning dastlabki yoki keyingi saqlanishidan qat’iy nazar, kinematografik asarlar va kinematografiya vositalari orqali taqdim etiladigan barcha asarlar (tele- va videofilmlar, diafilmlar, slaydfilmlar va shu kabilar) kiradi.

**Banner** (ingl: banner) - Veb-sahifadagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining veb-saytiga yoki mahsulot yoxud xizmat turi atroflicha bayon qilingan sahfalarga giperishoratdan iborat. Bannerlar tashrifchilarni jalb etish uchun, imijni shakllantirish yoki shu resursni siljitim uchun turli Internet-resurslarda joylashtiriladi.

**Banner almashish tarmog‘i** (ingl: banner exchange network) - Reklama maydonlari ishtirok etgan reklama tarmog‘i. Bannerlar almashish tarmoqlarining ko‘pi ochiqdir, ya’ni tarmoqning reklama siyosatiga javob beruvchi xohlagan sayt

uning ishtirokchisi bo‘lishi mumkin. Bannerlarni almashish ishtirokchisi o‘z sahifalarida boshqa ishtirokchilar bannerlarini ko‘rsatadi, buning uchun u o‘z sayti sahifalarida tarmoq kodini joylashtiradi. Buning evaziga u, o‘z reklamasini boshqa ishtirokchilar sahifalarida ko‘rsatish huquqi va imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z reklamasini boshqa saytlarda ko‘rsatish soni boshqalar reklamasini o‘z sahifalarida ko‘rsatishlar soniga to‘g‘ri nisbatda bog‘liq.

**Banner namoyishi** (ingl: banner demonstration) - Bannerni veb-sayt tashrifchisiga amalda namoyish qilish. Tashrifchining brauzeri ushbu bannerni so‘rab, uni to‘la yuklaganidan so‘ng hisobga olinadi.

**Banner reklamasi** (ingl: banner advertisement) - Biror veb-saytni boshqa veb-saytlarda joylashtirilgan bannerlar yordamida reklama qilish usuli. Reklama qilinayotgan veb-saytga tashrifflar sonini orttirish uchun

**Ergonomika** (ingl: ergonomics) - Inson faoliyatini ma’lum sharoitlarda to‘g‘ri tashkil qilish haqidagi fan. Ergonomika mehnatning insonning fiziologik va psixik imkoniyatlariga mos kelishi, eng kam biologik resurslarni talab qiladigan va inson sog‘lig‘iga xavf solmaydigan eng samarali ishni ta’minalash masalalarini o‘rganadi. Ergonomikaning asosiy tadqiqot ob’ekti – “inson-mashina-muhit” tizimi.

**Flesh, flesh** (ingl: flsh) - Adobe Flash – interaktiv vektorli grafikani va animatsiyani yaratish imkonini beradigan dastur. Veb-dizaynerlar fleshni turli tugmachalarni, menyuni, animatsiyalangan logotiplarni va boshqa elementlarni, shu jumladan tovushni, yaratish uchun ishlatadilar. Flesh fayllari ixcham bo‘lib, tez yuklanadi (oqim (streaming) texnologiyasi ishlatiladi).

**Fol** - filmga sinxronlangan ovoz effektlarini jonli yozib olish jarayoni.

**Fotoplyonka** - bu turli xil suratga olish uchun mo‘ljallangan, egiluvchan polimer substratdagи fotografik material.

**Grafik fayl** (ingl: graphic fie) - Nuqtama-nuqta kodlangan tasvirni o‘z ichiga olgan fayl. Bundan tashqari, grafik faylga dasturlarda va qurilmalarda ishlatiladigan boshqaruvchi kodlar ham kiradi.

**Grafik formatlar** (ingl: graphics fie formats) - Grafik fayl formatlari grafikani, rasmlarni saqlash va boshqarishning standart usulidir. Bu qo‘llanma rasmlarni va

boshqa grafikalarni raqamli rasmlar formatlar sifatida saqlaydi. Grafik formatlar pikselda yoki pikselga rastrlash (bir necha istisno bilan) qilinadigan (geometrik) vektorda yoziladi. Rasm/grafika piksellar panjara (ustunlar va qatorlar) sifatida bo‘ladi; har bir piksel raqamlardan tashkil topgan, ular yorug‘lik va rang darajasini bildiradi. Bu turdag'i formatlarga jpg, tiff, gif, png, bmp va boshqalar kiradi.

**Grafik interfeys** (ingl: graphic interface) - Foydalanuvchining hisoblash tizimi bilan o‘zaro aloqasini tashkil qiladigan grafik muhit. Grafik interfeys g‘oyasi amaliy tizim haqida axborot taqdim etishning tabiiyligidan foydalanishdan iborat. Foydalanuvchi interfeysining asosiy tushunchalari bo‘lib, oyna va piktogramma hisoblanadi. Grafik interfeysni ishlataligani tizimda amallarni bajarish, oynalar bilan va ular ichida ishslashdan iborat

**Grafik muharrir** (ingl: graphic editor) - Tasvirlarni tahrirlashni ta’minlaydigan amaliy dastur. Grafik muharrir odatda vektorli tasvirlar dasturlari, ishchan grafika, rastrli tasvirlar, rastrli tasvirlarni vektorli shaklga aylantirish, uch o‘lchamli tasvirlar va fayllarni boshqarish dasturlarini o‘z ichiga oladi. Grafik tahrirlash jarayoni tasvirning bo‘laklari ustidan (ixtiyoriy yo‘nalishda o‘lchamlarni o‘zgartirish, ekran bo‘ylab surish va burish, ravshanligini, yaqqolligini, rangini va boshqalarni o‘zgartirish) kabi amallar bajarishdan iborat

**Grafika** (ingl: graphics) - Predmetlarni rang ishlatmasdan, kontur chiziqlar va shtrixlar vositasida aks ettirish san’ati. Shu sababli, dastlab oq-qora chizmalarni va sxemalarni tayyorlash jarayoni kompyuter grafikasi deb nomlangan edi. Biroq, tezda turli tusdagi ranglar ishlatilgan rasmlar paydo bo‘ldi. Harakatsiz rangli tasvirlardan keyin videofilmlar yuzaga keldi. Hozirga kelib, uch o‘lchamli tasvirlar tobora keng ishlatilmoqda. Shu kunlarda, kompyuter grafikasi uni yangicha anglashda, hatto virtual borliqni yarata olishi mumkin. Vizuallashtirish tobora grafikasining muhim vositasi bo‘lib grafik muharrir hisoblanadi, u zarur tasvirlarni sintezlash imkonini beradi.

**Hajmli animatsiya** - sahnada qo‘g‘irchoq personajlarini kadrlar bo‘yicha harakatlantirish asosida yaratiladi.

**Harakatlanuvchi tasvirlar sohasidagi ekspertlar guruhi** (ingl: moving picture experts group (MPEG) - Video va audio uchun standartlar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilot. MPEG 1983 yilda tashkil etilgan. Standartlashtirishda bu guruhga tasvirlarni zichlashtirish usullari, ularni uzatish va tiklash sohasi ajratilgan. 1993 yilda videodisklarda ishlatiladigan MPEG texnologiyasi standartlari ishlab chiqildi. 1995 yilda DVD raqamli videodisk pleerlari, televizorlar, HDTV, videokameralar, yo‘ldosh tarmoqlarning raqamli televizion qabul qilgichlari uchun

**Karikatura** - kulguli effekt, kutilmagan taqqoslashlar va o‘zlashtirishlar orqali mubolag‘a va keskinlashuv natijasida hosil bo‘lgan satirik yoki kulguli rasm.

**Kinoplyonka** - bu suratga olish, kino nusxalarini chop etish va ovoz yozish uchun mo‘ljallangan shaffof egiluvchan substratdagi fotografik material.

**Kodek** (ingl: codec) - Foydalanuvchi tizimlarida analog signallarni va diskret signallarni ikki tomonlama o‘zgartiruvchi qurilma. Videoanjuman o‘tkazilganda u hujjatlarni namoyish qiladigan aks ettirgichning ichiga joylashtirilgan mikrofondan va kameradan analog signallarni qabul qiladi. Bu signallar raqamli shaklga o‘zgartiriladi va tarmoq orqali boshqa tizimga yuboriladi. Kodek tarmoq orqali boshqa tizimning diskret signallarini qabul qilib, ularni analog shaklga o‘zgartiradi va dinamiklar hamda monitor orasida taqsimlaydi.

**Kompyuter grafikasi** (ingl: computer graphics) - 1 Kompyuterlar yordamida tasvirlarni yaratish va ishlov berish texnologiyasi. 2 Hisoblash texnikasidan grafik tasvirlarni yaratish, ularni turli vositalar orqali aks ettirish (masalan, monitor ekranida, qattiq nusxalar shaklida va h.k.) va joyini, shaklini o‘zgartirish maqsadida foydalanish sohasi. 3 Kompyuterlar, tasvirlarning sintezi hamda real dunyodan olingan vizual axborotga ishlov berish uchun ishlatiladigan faoliyat turi. Ushbu faoliyatning mahsuloti ham kompyuter grafikasi deb ataladi. Avvaliga, oq-qora chizmalarni va sxemalarni tayyorlash jarayoni kompyuter grafikasi deb atalgan. Ammo, tez orada turli-tuman ranglarni ishlatadigan rasmlar paydo bo‘ldi. Harakatlanmaydigan rangli tasvirlardan keyin videofilmlar paydo bo‘ldi. Endi esa, uch o‘lchamli tasvirlar tobora keng tarqalmoqda. Hozirgi kunda kompyuter

grafikasi, uni yangicha tushunishda, hattoki virtual haqiqiylikni yarata oladi. Vizualizatsiya tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda.

**Magnit tasma** (ingl: magnetic tape) - Ma’lumotlarni saqlash uchun magnit moddasi bilan qoplangan egiluvchan tasma. Magnit tasma g‘altakka o‘raladi yoki ikki g‘altakli kassetada bo‘ladi. G‘altakli xotira to‘plagichlari boshqalaridan oldin paydo bo‘lgan bo‘lib, asosan katta va o‘rtacha kompyuterlarda ishlataladi. Shu bilan birga, 4 mm kenglikdagi DAT raqamli audiotasmalar bilan ishlaydigan magnitofonlar ham keng tarqalgan.

**Magnitooptik disk** (ingl: magneto-optical disk (MOD)) – Ma’lumotlarni o‘ta zinch saqlash uchun magnit-optik texnologiyalar asosida yaratilgan disk. U 1988 yilda yuzaga kelgan. Uning aktiv tashuvchisi terbiy qo‘shilgan temirkobalt qotishmasidir. Yozish uslubi qutblanishga asoslangan. Yozish jarayonida lazer nuri 1 mkmdan kam bo‘lgan joyni qizdiradi, buning natijasida ushbu nuqtadagi magnitlanganlik vektori tashqi magnit maydoniga parallel yo‘naladi. Aks etgan lazer nuri kuchsiz bo‘lib, magnitlanganlikni o‘zgartirish uchun yetarli bo‘lmaydi. Yozilgan ma’lumotlarni o‘chirish uchun tashuvchiga bir paytning o‘zida lazer nuri va tashqi magnit maydoni ta’siridan foydalaniladi. Shu tarzda ma’lumotni o‘chirish va qayta yozish 10 mln. marta amalga oshirilishi mumkin.

- Apple - .aif
- Microsoft Windows - .wav
- MIDI - .mid
- MPEG (Moving Pictures Expert Group) Layer-3
- .mp3
- Windows Media Audio - .wma

**Multfilm** - rassom tomonidan yaratilgan hajmli va tekis tasvirlarni yoki mavzuga oid obyektlarini film va video lentada yoki raqamli tashuvchida kadrlar bo‘yicha yozib olingan film.

**Multimedia** (ingl: multimedia) – 1. Inglizchadan olingan: multi – ko‘p va media – tashuvchi, muhit. Axborotni turli shakldagi tashuvchilar bo‘lmish tovush, tasvir va matnlar birikmasi. 2. Vizual va audio effektlarning o‘zaro muloqotli

dasturiy ta'minot boshqaruvida birgalikda namoyon bo'lishi. Odatda bu matn, tovush va grafikaning, so'nggi vaqtarda esa animatsiya va videoning ham birlashishini bildiradi. Multimedia veb-bog'lamalari va ixcham disklarning tavsifli, agar eng muhim bo'lmasa, xususiyatli giperishoratlardir. 3. Videotasvir va tovush bilan ishslash uchun apparat va dasturiy vositalar majmui. Multimedialiaga ega kompyuterlar odatda kuchli videotizimga, videomagnitofon va videokameralarni qo'shish imkoniyatiga, tasvirni ushslash va uni raqamli shaklda qattiq magnit diskka yozishning apparat vositalari, tasvirni ustiga qo'shish vositalariga ega. Shu bilan bir qatorda, ular tovushni aks ettirish va uning sintezi uchun tovush platasiga, axborotni ixcham diskdan o'qish uchun uzatishga, akustik tizimni qo'shish imkoniyatlariga egadir. 4. Xohlagan turdag'i ma'lumotlarni majmuaviy tarzda taqdim etish texnologiyasi. Multimedia birgalikda tasvirlarga ishlov berish, nutqni qayta ishslash va hujjalarga ishlov berishni ta'minlaydi.

**Multimedia funksiyalari** (ingl: multimedia functions) - Videoni raqamli filtrlash va masshtabga solish, videoni apparatli raqamli zichlash va yoyish, uch o'lchamli grafika (3D) bilan bog'liq grafik amallarni tezlashtirish, jonli videoni monitorga chiqarish, kompozitli video chiqishga ega bo'lish, TV signalini monitorga chiqarish.

**Multimedia tarmog'i** (ingl: multimedia network) - Kanallar bo'yicha turli shakldagi axborot (matn, tovush, video va h.k.)ni tashish uchun mo'ljallangan tarmoq.

**Multiplikatsiya** – hozirgi kunda bolalar uchun tabiiy ravishda yoshiga chindan ham mos keluvchi yanada ko'p qirrali va yaxlit ijod ko'rinishi hisoblanadi.

**Multiplikatsiya** (ingl: animation) - Lotincha "multiplisatio" – "ko'paytirish". Harakatlanuvchi tasvirlarni modellash jarayoni. Harakatlanuvchi tasvir soxta tasavvurni yaratadi. U tasvirlarni tez almashtirishga asoslangan. Axborot tizimida multiplikatsiya bir necha yo'l bilan amalgalash mumkin. Ulardan biri faqat "harakatlanishi" lozim bo'lgan jihatlari farq qiluvchi ko'plab tasvirlarni chizishdan iborat. Ikkinchi yo'l ekranni boshqarish dasturlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ular yordamida boshlang'ich va oxirgi mo'ljal punktlari belgilash orqali tasvirning

ketma-ket o‘zgarishi amalgaga oshiriladi. Bunda kompyuter tomonidan tasvirlarni yaratish tezligi ko‘rsatish tezligidan ancha past bo‘lishi mumkin. Bunday holatda tasvirlar ekranga chiqarilishidan oldin xotirada to‘planadi. Harakat soxta tasavvurini yaratish uchun ekranga sekundiga kamida 16 tasvirni chiqarish lozim.

**Multplikator** – multiplikatsiya yaratish jarayonida barcha bosqichlarni nazorat qiluvchi va multfilm uchun javobgar hisoblangan shaxs.

**Onlayn o‘yinlar** (ingl: online games) - Internetda o‘ynaladigan o‘yinlarning ikki turi mavjud: bevosa veb-sahifadagi soddagina o‘yinlar va ko‘p foydalanuvchilarga mo‘ljallangan o‘yinlar. Birinchi holda, o‘yin bevosa veb-sahifada o‘ynaladi – sahifaga kirishda katta bo‘lmagan dasturcha yuklanadi va o‘yin “iste’molga tayyor”. Odatda bunday o‘yinlar yetarlicha murakkab bo‘lmay, ayrim hollarda juda zavqli. Ko‘p foydalanuvchilarga mo‘ljallangan o‘yinlar, odatda mijoz-dastur bo‘lishini talab qiladi, ya’ni, siz sotib yoki ko‘chirib oladigan o‘yinlar. Bu mijozni ishga tushirib yuborib, siz Internet orqali o‘yinlar serveri bilan ulanasiz va shu serverga ulangan boshqa o‘yinchilar bilan birgalikda o‘yinda ishtirok

**Personaj** - spektakl, film, kitob va o‘yinlarning qahramonlari.

**Piksel** (ingl: pixel) - Tasvir elementi. Tasvirni diskretlash (boshqa bo‘linmaydigan elementlar – diskretlarga, uyalarga yoki rastr nuqtalariga bo‘lish) natijasida paydo bo‘ladigan eng kichik tarkibiy qism. To‘g‘ri to‘rtburchak shakliga va tasvirning makonga oid ajrata olishini belgilovchi o‘lchamlarga ega.

**Pikseldagi bitlar soni** (ingl: bits per pixel (bpp)) - Axborot hajmini o‘lchash birligi. Bir piksel rangini ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bitlar soniga teng. Jumladan, bir bit oq-qora pikselni ifodalay oladi, 4 bit 16 ta rangdan iborat gammani, 8 bit esa 256 ta rangdan iborat kombinatsiyani aks ettiradi

**Plugin** (ingl: plug-in) - Dasturning funksional imkoniyatlarini oshirish uchun ishlatalidigan, dinamik tarzda ulanuvchi modul. Odatda veb-brauzerga turli formatlardagi ma’lumotlarni aks ettirish va ularga ishlov berish yoki standart formatlarni aks ettirishning yangi imkoniyatlarini qo‘shish uchun foydalaniladi.

**Qisqa metrajli multfilm** – qisqa vaqtga mo‘ljallangan va qisqa hikoyani aks ettiradigan animatsion film.

**Rang** (ingl: color) - Muayyan elektromagnit spektrli yorug'likni ko'z bilan sezish. Kompyuter grafikasida rang uchta xususiyat bilan tavsiflanadi:

- to'yinganlik, rangning berilgan tus bilan ifodalanish darajasi odatda foizlarda belgilanadi;
- tus, yorug'lik nuri chastotasi bilan belgilanadigan sifat;
- yorqinlik, nurlanish energiyasi darajasi (yorug'lik oqimining zichligi).

Kompyuter tizimlarida rang bir necha model bilan tavsiflanishi mumkin. Masalan, keng tarqalgan asosiy "qizil, yashil, ko'k" ranglarning yagona tarzda birikmasi RGB deb ataluvchi model. Oq qog'ozga chop etishda "feruza, to'q-qizil, sariq" CMYK modelidan foydalaniladi.

**Rang modeli** (ingl: color model) - Ranglarni rang komponentlari yoki rang koordinatalari deb atalgan va odatda kortejlari shaklida tasvirlashning abstrakt modelini bildiruvchi atama. Ushbu ma'lumotlarni sharhlash uslubi (masalan, aks ettirish yoki ko'rish shartlarini belgilash) bilan birga, rang modelining ranglar ko'pligi rang makonini belgilaydi. Eng ko'p tarqalgan rang modellari: RGB (asosan informatikada qo'llaniladi), CMYK (poligrafiyada asosiy rang modeli). Televidenieda PAL standarti uchun YUV rang modeli, NTSC uchun esa YIQ modeli qo'llaniladi. XYZ etalon modeli inson ko'zining xarakteristikalarini o'lchashga asoslangan.

**Ranglarga ajratish** (ingl: color separation) - Dastlabki tasvirni har biri faqat bir o'lchamli (sonli) darajaga ega bo'lgan rang tarkibiy qismlari – rang tekisliklariga ajratish. Substraktiv sintezning eng keng tarqalgan modeli, bu - CMYK poligrafik tizimi. Zamonaviy poligrafiyada ranglarga ajratish bu rangli tasvirlarni bir nechta bo'yoqlarda chop etishga tayyorlash jarayonidir.

**Rastr** (ingl: raster) - Tasvirlarni to'g'ri burchakli matritsaviy tasvir elementlari – piksellar shaklida taqdim qilishning raqamli vositasi. Ular tasvirlarni yoki fazoviy ob'ektlarni rastrli ifodalash asosidir.

**Rastrlash** (ingl: rasterisation) - Vektor formatidagi ikki o'lchamli tasvirni display yoki printerga chiqarish uchun piksellar yoki nuqtalarga o'girish. Vektorlashga teskari bo'lgan jarayon. Atama XIX asrning o'rtalarida chop etishning

offset usuli va sifatli chop etish uchun zarur bo‘lgan rastr texnologiyasi yaratilishi bilan paydo bo‘lgan.

**Rastrli tasvir** (ingl: raster image) - Alovida oddiy elementlar bo‘lmish piksellardan qatorlab shakllantirilgan tasvir. Tasvir matritsasidagi ko‘p sonli piksellar uning shunday shaklini ta’minlaydiki, unda nuqtalar bir biri bilan deyarli qo‘silib ketadi. Rastrli grafikaning muhim fazilati bo‘lib, u tasvirlarga ishlov berishni ancha yengillashtirish, tasvirning har bir elementini tahrir qilish imkonidir. Rastrli tasvirlarning kamchiligi ohista o‘zgaradigan egri chiziqlarni yarata olmaslidir. Masalan, aylana har doim sinishlarni tasvir rastri nuqtalari sonini oshirish hisobiga kamaytirish mumkin, ammo to‘liq yo‘q qilib bo‘lmaydi.

**Rastrli-vektorli o‘zgartirish** (ingl: raster-to-vector transformation) - Ob’ektlarni rastrli ifodalashdan vektorli shaklga avtomatik yoki yarimavtomatik ravishda aylantirish.

**Relyef animatsiyasi** - gorizontal tekislikda joylashgan hajmli yoki yarim o‘lchovli narsalarning kadrlar bo‘yicha tortib olinishiga asoslangan animatsiya turi.

**Renderlash** (ingl: rendering) - Modeldan kompyuter dasturi yordamida tasvirni olish jarayoni. Renderlash deganda badiiy va texnik kompyuter grafikasida oldindan ishlab chiqilgan 3D sahna asosida yassi tasvir (rasm)ni yaratish tushuniladi.

**Tekislik animatsiyasi** - gorizontal tekislikda yotgan rasmlarni yoki tekis qo‘g‘irchoqlarni kadrlar bilan tortib olishga asoslangan animatsiya turi.

**Tekstura** (ingl: texture) – 1. Idrok qilinishi birmuncha yaqin elementlardan iborat bo‘lgan tasvir. Aralash teksturalar elementlarning bir necha to‘plamlari (klasslari)ni o‘z ichiga olgan elementlardan iborat bo‘lishi mumkin. Barcha nuqtalarining atroflari bir biriga o‘xhash tekstura bir tekis (gomogen) tekstura deyiladi. 2. 3D-modellarni tashkil qiluvchi poligon yuzasiga rang, tus yoki relief illyuziyasini berish maqsadida solinadigan rastr tasvir. “Tekstura” tushunchasi 3D-modellash asoslarining biri hisoblanadi, chunki u yuzanining kichik ob’ektlarini aks ettirishga imkon beradi. Masalan, teridagi chandiqlar, kiyimdagи burmalar, mayda toshlar va devor hamda yer yuzasidagi boshqa buyumlar.

**Teksturlash** (ingl: texture mapping) - Kompyuter grafikasi ob'ektlarni haqiqiyroq va to‘yinganroq ko‘rinishda aks ettirish uchun yuzaga ishlov berish usuli.

**To‘liq metrajli multfilm** – ma’lum biror voqelikni syujet asosida batafsil tasvirlashga mo‘ljallangan animatsion film.

**Tovush** (ingl: sound) - Muhitning tebranma harakati. Tabiatning har qanday hodisalari qatori asboblar, apparatlar, mashinalar, transport vositalari ham tovush manbai bo‘lishi mumkin. Tovushning alohida turlari sifatida nutq va musiqani keltirish mumkin. Inson 16 Gs dan to 20 kGs gacha chastota oraliqdagi tovushlarni qabul qila oladi. Texnik qurilmalar esa ancha keng oraliqdagi tovushni, hatto ultratovush va gipertovushni ham qabul qila oladi. Tovush foydalanuvchi tizimiga tovush platasi orqali kiritiladi va tovush tizimida qayta tiklanadi. Tovush tashuvchi to‘lqinlar mikrofon bilan qabul qilinadi, analog-raqamli o‘zgartirishdan o‘tadi va bir o‘lchamli diskret signallar ketma-ketligiga aylanadi. Natijada tovush xotira qurilmasiga yoziladi, so‘ngra boshqa turdagи ma’lumotlar shakli.

**Tovush fayli** (ingl: sound fie) - Nuqtama-nuqta kodlangan tovush bo‘laklaridan iborat fayl. Bundan tashqari, tovush fayli dasturlar va qurilmalar tomonidan ishlatiladigan boshqaruvchi kodlarni ham o‘z ichiga oladi. Tovush fayllarining namunaviy kengaytmalari:

**Uch o‘lchamli grafika** (ingl: three-dimensional graphics) - Hajmli ob'ektlarning tasvirlari ustidan tekislikda amallar bajaruvchi kompyuter grafikasi. Uch o‘lchamli grafika uch o‘lchamli tasvirni ikki o‘lchamli shaklda ifodalash modelini ishlatish natijasida olinadi. Shu bilan birga, sintezlanayotgan uch o‘lchamli 3D ob'ektning mumkin bo‘lgan eng ko‘p darajada taqlid qilinishi ta’minlanishi shart. Uch o‘lchamli grafika tushuntirilayotgan materialni izohlashda keng ishlatiladi va virtual borliqni boyitadi. Uni tavsiflash uchun turli tillar ishlatiladi, shu jumladan, virtual borliqni modellash tili ham.

**Uch o‘lchamli interfeys** (ingl: three dimensional interface) - Uch o‘lchamli grafikani tavsiflaydigan (3D) interfeysning yaratilishi aniq ob'ektlarni tavsiflaydigan uch o‘lchamli grafikaning barcha kuchli vositalarini birlashtirish imkonini beradi. Bu uch o‘lchamli tavsiflar bo‘yicha, inson “ko‘rishiga” taqlid

etilgan virtual borliqda harakatlanuvchi tasvirlarni tezkor qurish texnologiyasini yaratish imkonini beradi.

**Uch o‘lchamli tasvir** (ingl: three dimensional image) - Ob’ektning hajmli tasviri.

**Veb-dizayn** (ingl: web-design) - Veb-sahifalarini bezash. Veb-dizayn qog‘oz nashri uchun poligrafik dizayn va sahifalash qanday vazifani bajarsa, sayt uchun ham xuddi shunday vazifani bajaradi. Veb- dizayn deganda odatda nafaqat sayt uchun grafik elementlarni yaratishni, balki uning tuzilmasi, navigatsiyasi va ba’zan sayt ishi uchun zarur bo‘lgan skriptlarni loyihalash, ya’ni saytni to‘liq yaratish nazarda tutiladi. Dizayn saytning aqli tuzilishi ma’nosida uning “chiroyliligi”dan ancha muhimroq. Sayt dizayni odatda ixtisoslashtirilgan veb-dizayn studiyalari tomonidan bajariladi. Sayt uchun dizayn yaratish bahosi sayt hajmi, grafik elementlar soni, uning ustida ishlovchi mutaxassislar saviyasi, dasturlash.

**Veb-interfeys** (ingl: web-interface) - Foydalanuvchiga veb-brauzer orqali turli dasturlar bilan o‘zaro ishlash imkonini beruvchi interfeys (masalan, o‘z buyurtmasini boshqarish, Internet do‘konida yoki tarmoq printerini sozlash). Veb-interfeyslarining qulayligi shundaki, ular bitta ofisda joylashmagan xodimlarga birgalikda ish yuritish imkonini beradi. Masalan, veb-interfeyslar turli ma’lumotlar bazalarini to‘ldirish yoki Internet OAVda materiallarni chop etish uchun ishlatiladi.

**Veb-ranglar** (ingl: web-colors) - Rasmlarda ranglarni aniq solishtirish va aks ettirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan 256 rangdan 216 tasini o‘z ichiga olgan ranglar jadvali. qolgan 40 rang ishlatilmaydi, chunki ular kompyuterlarda rang uzatish sifatining sozlanganligiga ko‘ra turlicha aks ettirilishi mumkin. Veb standart palitra odatda xavfsiz ranglar palitrasи deyiladi.

**Vektor grafikasi** (ingl: vector graphics) - Chiziqlar joylashishi, uzunligi va yo‘nalishini belgilovchi matematik tavsiflar bo‘yicha yaratiladigan rasmlar. Vektor rasmlari nuqta yoki piksellar to‘plamidan bo‘lmay, chiziqlar oilasidan iborat.

**Vektorlash** (ingl: vectorization) - Rastr grafikasini vektor grafikasiga o‘girish, rastrlashga teskari bo‘lgan jarayon. Rastrlashdan farqli o‘laroq ushbu jarayon juda murakkab bo‘lib, uni to‘liq avtomatik tartibda bajarib bo‘lmaydi.

**Video kirish** (ingl: video input) - Moslama. U foydalanuvchining shaxsiy kompyuter yordamida ko‘ngil ochar yoki ishga oid dasturlari va Internet resurslari bilan fizik o‘zaro ishlashini ta’minlaydi. Ushbu istiqbolli texnologiya insonni virtual dunyoga “olib kiradi”.

**Virtual** (ingl: virtual) - Voqeiy bo‘lib ko‘ringan, biroq vazifalari boshqa moslamalar tomonidan bajariladigan funksional moslama ta’rifi.

**Virtual voqelik** (ingl: virtual reality) – 1. Virtual, ya’ni haqiqatan mavjud bo‘lmasan yoki mavjud bo‘lib undan boshqacha qabul qilinadigan muhit. “Virtual voqelik” tushunchasi kompyuter vositalari yordamida yaratilgan dunyoni bildiradi. U haqiqatan mavjud bo‘lmaydi, biroq kompyuter insonning ko‘rish, eshitish va boshqa hissiyot organlariga ta’sir qilib, ushbu dunyodan foydalanish illyuziyasini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, inson ushbu dunyoda ro‘y berayotgan voqealarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkinligi voqeiylik hissini kuchaytiradi. Virtual voqelikdan foydalanishning oddiy misoli bu kompyuter o‘yinidir. 2. Kuzatuvchini ekran orqasidagi tasavvur qilinayotgan dunyoga olib kiruvchi ko‘rish va eshitishni ta’minlovchi kompyuter tizimlari. Foydalanuvchi atrofida kompyuterlar tomonidan yaratilgan voqelik hissini beruvchi tasavvur va tovushlar paydo bo‘ladi. Foydalanuvchi sun’iy dunyo bilan uning harakatlari va tuyg‘ularini hamda audiovizual effektlarini bog‘lovchi shlem va qo‘lqop kabi turli sensorlar orqali muloqotda bo‘ladi. Virtual voqelik sohasidagi kelgusi tadqiqotlar kuzatilayotgan narsalarning haqqoniyligi tuyg‘usini kuchaytirishga qaratilgan. 3. Axborot o‘zaro ta’sir qilishning yangi texnologiyasi. U murakkab multimedia-amaliy muhitlar yordamida voqeiy vaqtida bo‘rttirilgan tarzda aks ettirilgan “ekran.

**Virtual voqelik texnologiyasi** (ingl: virtual reality technologies, rus: texnologii virtualnoy realnosti) - Axborot texnologiyalari turi. Informatika va kibernetika vositalari yordamida, insonlar ongida virtual voqelikni shakllantirishni ta’minlaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Блинова Т.А., Порев В.Н. Компьютерная графика /Под ред. В.Н.Порева // Книга для самостоятельного изучени - К.: Издательство Юниор, 2005. - 520 с.
2. Маров М. 3D Studio MAX 3: учебный курс / Книга для самостоятельного изучени – СПб: Издательство «Питер», 2010 – 640 с.: ил.
3. Основы трехмерной графики и анимации / Коллектив авторов // Книга для самостоятельного изучени – М., 2005. – 341 с.
4. Петерсон М. Эффективная работа с 3d Studio MAX / Книга для самостоятельного изучени – СПб: Питер, 2011 – 656 с.: ил.
5. Роберс С. Анимация 3D-персонажей / Стив Робертс; пер. с. Англ. Г.П. Ковалева / Книга для самостоятельного изучени – М.: НТ Пресс, 2006. – 254 с.
6. 3DS Max за 21 день / Книга для самостоятельного изучени . – СПб.: Питер, 2011. – 240 с.: ил.
7. Nazirov Sh.A, Nuraliyev F.M, To‘rayev B.Z. Kompyuter grafikasi va dizayn / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2015. – 256 b.
8. Nazirov Sh.A., Nuraliyev F.M., Tillayeva M.A., Rasulbayev M.M. Flash texnologiyalari / O‘quv qo‘llanma. - Cho`lpon, Toshkent, 2012. – 100 b.
9. Nazirov Sh.A., Nuraliyev F.M., Tillayeva M.A., Uch o`lchovli modellashtirish / O‘quv qo‘llanma. - Ilm ziyo, Toshkent, 2012. – 144 b.
10. АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИЗОҲЛИ ЛУФАТИ © БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси / Toshkent, 2010. ISBN 978-9943-11-078-6 ББК 32.812
11. Велинский Д. В. Технология процесса производства мультфильмов в техниках перекладки. Методическое пособие. Издание второе, исправленное и дополненное 2011 г., 41 стр. с ил.

- 12.П.И.Анофриков Принципы работы детской студии мультипликации.  
Учебное пособие для тех, кто хочет создать детскую студию  
мультипликации. Издание второе, исправленное и дополненное. 2011  
г. 43 стр.
- 13.Джесси Рассел. Мультипликация (технология) Издательство: Книга по  
Требованию / Методическое пособие, 2012г.
- 14.С.В. Асенин. Мир мультфильма. Издательство: Книга по Требованию  
/ Методическое пособие. 2012г.
- 15.Киркпатрик Г., Питти К. Мультипликация во Flash / Методическое  
пособие. – М.: НТ Пресс, 2006.
- 16.<http://cpu3d.com/animation/kak-delayutsya-animacionnye-3d-filmy/>
- 17.<https://www.shon.su/3dcreate>
- 18.<https://www.movavi.ru/support/how-to/how-to-create-cartoons.html>
- 19.<https://www.pixar.com>
- 20.<https://stormystudio.com/>
- 21.[https://multtov.net.ua/article/109\\_kak\\_sozdat.html](https://multtov.net.ua/article/109_kak_sozdat.html)